



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SANITARIYA QOIDALARI VA
ME’YORLARI, GIGIYENA NORMATIVLARI**

**SILGA QARSHI DAVOLASH MUASSASALARINI TASHKIL ETISH
BO‘YICHA SANITARIYA NORMALARI VA QOIDALARI**

**O‘zbekiston Respublikasi
0314-14-sonli SanQvaM**

Rasmiy nashr

Toshkent – 2014

1-bob. Umumiy qoidalar va qo'llanish sohasi

1. Sanitariya qoidalari va me'yorlari (bundan keyin sanitariya qoidalari deb yuritiladi) sil kasalligiga qarshi kurashish muassasalarining joylashuvi, tuzilishi, jihozlanishi, saqlash tartibi, epidemiyaga qarshi rejimi, profilaktika va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlari, xodimlarning mehnat sharoitlari, bemorlar va xodimlarning ovqatlanishini tashkil etishga oid sanitariya-epidemiologiya talablarini belgilaydi.

2. Sil kasalligiga qarshi statsionarlar (bo'limlar), statsionarsiz dispanserlar binolarini joylashtirish uchun yer maydonini tanlash, namunaviy loyihalarni moslashtirish, individual va takroriy qo'llash loyihalari, shuningdek binolar va xonalarni qayta qurish va qayta jihozlash (qayta rejalashtirish) loyihalari belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3. Alohida hollarda, zich qurilish sharoitlarida davolash-profilaktika muassasalari uchun ushbu me'yorlar va qoidalar talablaridan maydonlar bo'yicha 10% gacha chetga chiqishga yo'l qo'yiladi.

4. Yangidan qurilgan, qayta qurilgan, ta'mirlangan, qayta rejalashtirilgan yoki qayta jihozlangan sil kasalligiga qarshi muassasalar yoki ularning tarkibiga kiruvchi alohida bo'linmalar yoki xonalarni foydalanishga qabul qilish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5. Sil kasalligiga qarshi muassasalarning yer maydonlarida ular bilan funksional bog'liq bo'lmagan bino va inshootlarni (ijtimoiy-maishiy xizmatlardan tashqari) joylashtirish taqiqlanadi.

6. Sil kasalligiga qarshi muassasalarni loyihalash, qurish yoki qayta qurish chog'ida ushbu qoidalaridan tashqari, amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga ham rioya qilish zarur.

7. Sanitariya qoidalari tashkiliy-huquqiy shakli va mulkchilik turidan qat'i nazar, tibbiy faoliyat yurituvchi barcha yuridik shaxslarga taalluqli bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida bajarilishi majburiydir. Sil kasalligiga qarshi kurashish muassasalarini loyihalashtirish, qurish, qayta qurish, kapital ta'mirlash, qayta rejalashtirish va ulardan foydalanish ushbu qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi.

8. Mazkur qoidalar talablariga rioya etilishi uchun javobgarlik yuridik shaxslar va mansabdor shaxslar zimmasiga yuklanadi.

9. Tibbiy faoliyat yurituvchi tashkilotlar ma'muriyati sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi tartibga rioya etilishi ustidan ishlab chiqarish nazoratini tashkil etishi, amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq laboratoriya-asbobiy tekshiruvlar va o'lchashlar o'tkazishi shart.

10. Ushbu sanitariya qoidalari faoliyati sil kasalligiga qarshi kurashish muassasalarini loyihalashtirish, qurish va qayta qurish bilan bog'liq bo'lgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan bajarilishi majburiydir.

2-bob. Sil kasalligiga qarshi kurashish muassasalarining joylashuvi va hududiga qo'yiladigan talablar

11. Silga qarshi muassasalar aholi yashaydigan hududlarda, yashil yoki shahar atrofi zonalarida jamoat, sanoat, kommunal va xo'jalik tashkilotlaridan (shaharsozlik me'yorlariga muvofiq) ma'lum masofada joylashtiriladi. Bu joylashtirishda shahar, qishloq va ovullarni rejalashtirish hamda qurishga qo'yiladigan talablar, shuningdek sanitariya-himoya zonalariga oid gigiyenik talablar inobatga olinadi.

Yer uchastkasi sanitariya qoidalari va me'yorlariga to'liq mos kelishi shart.

12. Yangi qurilayotgan silga qarshi statsionarlar aholi yashaydigan hududlardan kamida 100 metr uzoqlikda joylashtirilishi lozim.

Statsionarlari mavjud dispanserlar uchun bu masofa 50 metr, statsionarsiz dispanserlar uchun esa kamida 20 metr bo'lishi kerak.

13. Mavjud sil kasalliklari shifoxonalari uchun, agar ular allaqachon qurilgan hududlarda joylashgan bo'lsa, palata binolari va turar-joy uylari orasidagi masofa kamida 50 metr bo'lishi lozim. Bunda asosiy e'tibor bunday shifoxonalarga qo'yiladigan ichki tartib-qoidalarga qat'iy rioya qilishga qaratilishi zarur.

14. Uchastkani tanlashda atrofdagi sanitariya holati va shamolning ustunlik yo'nalishini hisobga olish lozim. Ilgari axlatxonalar, oqava suvlar maydonlari, hayvon ko'mishxonalar, qabristonlar va shunga o'xshash joylar sifatida foydalanilgan, shuningdek organik, kimyoviy va boshqa zararli chiqindilar bilan ifloslangan yer uchastkalarida sil kasalligiga qarshi muassasalarni joylashtirish man etiladi. Silga qarshi muassasalar uchastkalari temir yo'llardan, aeroportlardan, tezkor avtomagistrallardan va fizik omillarning boshqa kuchli ta'sir manbalaridan uzoqda joylashtirilishi shart (shaharsozlik me'yorlari va amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq). Amaldagi me'yoriy hujjatlarga asosan o'tkazilgan hisob-kitoblar natijasida, davolash-profilaktika muassasalari joylashadigan tuproq sanitariya-kimyoviy, mikrobiologik, parazitologik ko'rsatkichlar va radiatsiya omili bo'yicha gigiyenik me'yorlarga mos kelishi, atmosfera havosidagi zararli moddalar miqdori, elektromagnit nurlanish, shovqin, tebranish, infratovush darajasi turar-joy va jamoat binolari xonalari uchun belgilangan gigiyenik me'yorlardan oshmasligi kerak.

15. Ionlashtiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanadigan muassasalarni joylashtirish talablari radiatsiyaviy xavfsizlik me'yorlari va ushbu faoliyat turiga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablariga muvofiq belgilanadi.

16. Alohida joylashgan statsionarlar va ambulatoriya-poliklinika tashkilotlarining yer uchastkalari maydonlari shaharsozlik me'yoriy hujjatlari (1PNK 2.07.01-03) talablariga muvofiq belgilanishi lozim. Statsionar yer uchastkasining tavsiya etiladigan maydonlari koykalar sig'imiga qarab 1-jadvalda keltirilgan*.

17. Xonalar derazalarining tavsiya etilayotgan yo'nalishi: janub, janubi-sharq,

sharq, shimoli-sharq bo'lgani ma'qul. PTP binolarini (bemorlarning ahvolini hisobga olgan holda) 2 qavatli qilib qurish maqsadga muvofiq.

1-jadval

Bir koykaga to'g'ri keladigan yer uchastkasi maydoni

Sig'imi	Yer uchastkalarining o'lchamlari (m ² bir koykaga)
50 tagacha koyka	300
50 dan 100 gacha koyka	300-200
100 dan 200 gacha koyka	200-140
200 dan 400 gacha koyka	140-100
400 dan 800 gacha koyka	100-80
800 dan 1000 gacha koyka	80-60
<i>Izoh: bolalar uchun bir koykaga butun statsionar normasini 1,5 koeffitsiyent bilan qabul qilish kerak</i>	

Shahar atrofidagi hududlarda joylashtiriladigan obyektlarning yer uchastkalari maydoni 25 foizga, bolalar uchun esa 40 foizga oshirilishi lozim.

18. Kasalxonalar va statsionarlari mavjud dispanserlar uchastkalarining qurilish zichligi* 12-15% oralig'ida bo'lishi lozim. Qolgan hudud obodonlashtirilishi va ko'kalamzorlashtirilishi kerak. Ko'kalamzorlar va maysazorlar maydoni uchastka umumiy maydonining kamida 60 foizini tashkil etishi shart. Bog'-park zonasining maydoni bir o'ringa kamida 25 m² bo'lishi lozim. Tor shahar qurilishi sharoitida, shuningdek, tarkibida tiklovchi davolash va parvarishlash palata bo'limlari bo'lmagan statsionarlarda yashil o'simliklar ulushini va bog'-park zonasi o'lchamlarini qisqartirish hisobiga uchastka maydonini me'yorlangandan 50% gacha kamaytirishga ruxsat etiladi.

Tabiiy yorug'likning pasayishi va insolyatsiyaning oldini olish maqsadida daraxtlar binolarning yorug'lik o'tkazuvchi tuynuklaridan kamida 10 metr, butalar esa kamida 5 metr masofada ekilishi kerak.

Statsionarlar va ambulatoriya-poliklinika tashkilotlari* uchastkalari perimetri bo'ylab baland tanali daraxtlar va bir qator butalar ikki qator ekilgan holda mos ravishda 10 va 15 metr kenglikdagi yashil daraxtzorlar polosasini ko'zda tutish lozim. Balzam terak, mayda bargli jo'ka, shumtol, nastarin va shingilgul eng yaxshi "tozalovchi" vazifasini bajarishi mumkin. Oltingugurti ko'p miqdorda qayrag'och, zarang, tuyay va archa barglari o'ziga singdiradi.

19. Statsionar hududida bemorlarning sayr qilishi va dam olishi uchun o'rindiqlar va soyabonlar bilan jihozlangan maydon, shuningdek, yomg'ir va quyoshdan himoyalangan bemorlar va tashrif buyuruvchilar uchun uchrashish joylari bo'lishi shart. Ambulator sil kasalligiga qarshi muassasalarda quyosh va yomg'irdan

himoyalangan, tabiiy shamollatish imkoniyatiga ega, yetarli sig'imdagi bemorlar va tashrif buyuruvchilar kutish joylari tashkil etilishi lozim. Ko'p dorilarga chidamli sil mikobakteriyalari bilan kasallangan bemorlar bo'limidagi bemorlarning sayr qilishi va dam olishi uchun boshqa bo'limlardagi bemorlar sayr qiladigan joylar kabi obodonlashtirilgan va jihozlangan, alohida ajratilgan va belgilangan hudud ajratilishi mumkin.

20. Odamlar to'planadigan joylardan kamida 20 metr uzoqlikda balg'am yig'ish uchun maxsus joy (kabina) jihozlanishi kerak. Bu joy quyidagi talablarga javob berishi lozim:

maksimal darajada tabiiy shamollatishni ta'minlaydigan tuzilishga ega bo'lishi;
tibbiyot xodimi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri kuzatish imkoniyatini ta'minlashi;
ichida o'tirish joyi (stul yoki skameyka) va muolajani to'g'ri o'tkazish bo'yicha qisqacha yo'riqnoma bo'lishi;

jarayonni begona shaxslar tomonidan kuzatish imkoniyatini istisno etishi.

21. Statsionarlarning aholi bilan qulay transport aloqalarini ta'minlash zarur. Davolash muassasalari hududiga borish uchun qattiq qoplamali qulay yo'llar qurilishi kerak. Xuddi shunday, ichki yo'llar va piyodalar yo'laklari ham qattiq qoplamali bo'lishi lozim.

Shaxsiy foydalanishdagi avtotransport vositalarining vaqtinchalik to'xtash joylarini kasalxona binosidan kamida 40 metr masofada joylashtirish lozim.

22. Statsionarlar hududida quyidagi zonalar ajratiladi: davolash korpuslari, bog'-park, patologoanatomik korpus, xo'jalik va muhandislik inshootlari.

23. Sil kasalligiga qarshi kurashish kasalxonasi (korpusi) hududida bir-biridan yashil o'simliklar polosasi bilan ajratilgan past infeksiyalanish xavfi (yoki "toza") va yuqori infeksiyalanish xavfi (yoki "iflos") zonalar ajratilishi shart.

24. Kasalxona hududidagi korpuslar va boshqa binolar o'rtasidagi sanitariya oraliqlarini optimal quyosh nuri tushishi, yoritilganlik, shamollatish, shovqindan himoyalash va hokazo sharoitlarni ta'minlaydigan tarzda belgilash kerak. Davolash muassasalaridagi xonalar derazalarining yo'nalishini 2-jadvalga muvofiq tanlanishi tavsiya etiladi.

25. Xonalarning derazalarini jahon tomonlariga erkin yo'naltirish mumkin, bunda turar joy va jamoat binolari xonalari hamda hududlarni insolyatsiya va quyoshdan himoyalash bo'yicha sanitariya va shaharsozlik me'yorlari va qoidalari talablarini hisobga olgan holda, insolyatsiyaning me'yoriy davomiyligini ta'minlash shart.

26. Muassasalar binolari orasidagi masofani quyidagicha belgilash lozim*:

palatalardan derazalari bo'lgan binolarning devorlari orasidagi masofa qarshi turgan bino balandligining 2,5 barobarini tashkil etishi, biroq 15 metrdan kam bo'lmasligi kerak;

ovqat tayyorlash xizmati binolari va patologoanatomik korpus o'rtasida - kamida 30 metr;

radiologiya korpusi va xo'jalik hududida joylashtirilgan boshqa binolar o'rtasida - kamida 25 metr;

2-jadval

Xona derazalari yo'nalishi

Xonalar	Geografik kenglik 45° shimoliy kenglik va undan janubda
Operatsiya, reanimatsiya zonalari, seksiyalar	Shimol Shimoli-sharq Shimoli-g'arb
Bakteriologik tekshiruvlar, yuqumli materiallarni qabul qilish, ularni tahlil qilish, yorib ko'rish uchun mo'ljallangan laboratoriyalar	Shimol Shimoli-sharq Shimoli-g'arb Janubi-sharq Sharq
Palatalar	Janub Janubi-sharq Sharq Shimoli-sharq Shimoli-g'arb*
Intensiv terapiya palatalari	g'arbiy va janubi-g'arbiy yo'nalishlar yo'l qo'yilmaydi
3 yoshgacha bo'lgan bolalar bo'limlari palatalari, bolalar bo'limlaridagi o'yin xonalari	Janub Janubi-sharq Sharq

Izoh: g'arbga qaragan palatalarda xonalarni quyosh nurlari ta'sirida qizib ketishdan himoya qilish choralari (jalyuzi yoki boshqa moslamalar) ko'zda tutish lozim.

* Bo'limdagi umumiy o'rinlar sonining 10 foizidan oshmasligi ruxsat etiladi.

27. Marosim zonasi* bo'lgan patologoanatomik korpus palata korpuslaridan iloji boricha ajratilgan bo'lishi va davolash muassasasi hududiga yaqin joylashgan davolash, turar joy va jamoat binolarining derazalaridan ko'rinmasligi kerak. Patologoanatomik korpusdan palata korpuslarigacha bo'lgan masofa 30 metrdan kam bo'lmasligi lozim.

Marosim zonasiga kirish va chiqish yo'li alohida bo'lishi shart*.

28. Statsionar hududida alohida joylashgan poliklinika korpusi o'rnatilganda, u hudud chekkasiga yaqin joylashtirilishi, aholiga qulay va yaqin bo'lgan mustaqil kirish joyiga ega bo'lishi lozim.

29. Sil kasalligiga qarshi shifoxona hududi yoritilgan va ko'rsatkich yorug'lik tablolari bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

30. Hudud har kuni tozalanishi shart. Axlat va maishiy chiqindilarni to'plash uchun zich yopiladigan qopqoqli axlat yig'gichlar o'rnatiladi. Bular uchun dezinfeksiya va yuvishga qulay asfalt yoki beton qoplamali maxsus maydonchalar tashkil etilishi lozim. Maydoncha o'lchamlari konteynerlar asosidan har tomonlama 1,5 metr katta bo'lishi kerak. Maydoncha atrofiga yomg'ir va oqova suvlarni chiqarib yuborish uchun suv oqimi tizimi o'rnatilishi zarur.

Axlat yig'ish maydonchasi palata va davolash-tashxis binolaridan kamida 25 metr uzoqlikda joylashishi kerak. Axlat yig'gichlar muntazam ravishda yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi lozim. Axlat va oziq-ovqat chiqindilari har kuni olib chiqib turilishi shart.

31. Davolash binosi hududida har 50 metrda axlat uchun qutilar o'rnatilishi, ular har kuni tozalanishi va toza holda saqlanishi kerak.

32. Tibbiyot tashkilotlari chiqindilari bilan ishlash amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Binolar, inshootlar va alohida xonalarning arxitekturaviy-rejalashtirish va konstruktiv yechimlariga qo'yiladigan talablar

33. Sil kasalligiga qarshi kurashish statsionarlarining binolari va xonalari arxitektura-rejalashtirish va konstruktiv yechimlari sanitariya-gigiyena hamda epidemiyaga qarshi rejimlarga rioya etilishini, shuningdek bemorlarning xavfsiz bo'lishi, xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning mehnat qilishi va dam olishi uchun qulay sharoitlarni ta'minlashi lozim. Bo'limlarni aniq zonallashtirish zarur, bu turli darajadagi yuqumli bemorlar va xodimlar oqimining kesishishini oldini oladi hamda palatalarni to'ldirish va sanitariya ishlov berishning davriyligini ta'minlaydi.

34. Yangi sil kasalligiga qarshi muassasalarni loyihalashtirishda* ko'p dorilarga chidamli mikobakteriyali sil kasalligi bilan og'riqan bemorlar uchun mo'ljallangan bo'limlarni va ayniqsa sud qarori bilan majburiy tartibda davolanishga yuborilgan bemorlar uchun mo'ljallangan bo'limlarni - alohida, boshqa binolardan ajratilgan holda joylashtirish tavsiya etiladi. Faoliyat ko'rsatayotgan silga qarshi kurashuvchi tashkilotlarda, moslashtirilgan ko'p qavatli binolarda ko'p dorilarga chidamli mikobakteriyali sil kasalligi bilan og'riqan bemorlar uchun mo'ljallangan bo'limlarni binolarning yuqori qavatlarida joylashtirish lozim.

BK+ va BK- bilan og'riqan bemorlarni KBB uchun balg'am surtmasini mikroskopiya qilish natijalariga ko'ra, shuningdek, turli sabablarga ko'ra samarali

kimyoterapiya olmayotgan bakteriya ajratuvchi bemorlarni (ya'ni simptomatik yoki palliativ terapiyadagi surunkali bemorlarni) alohida bo'limlarga joylashtirish amalga oshiriladi.

Bolalar bo'limini alohida binoda joylashtirish ham zarur. Faoliyat yuritayotgan silga qarshi muassasalarda bolalar bo'limi uchun alohida ajratilgan kirish joyi bo'lishi shart.

35. Kattalar uchun palata bo'limlarini binoning oltinchi qavatidan, bolalar shifoxonalari va korpuslarining palata bo'limlarini (shu jumladan, uch yoshgacha bo'lgan bolalar va ularning onalari uchun palatalarni) binoning beshinchi qavatidan, yetti yoshgacha bo'lgan bolalar uchun palatalarni esa binoning ikkinchi qavatidan yuqori bo'lmagan holda loyihalash lozim.

36. Muassasaning tuzilishi va xonalarining joylashuvi turli darajadagi xavfga ega bo'lgan bemorlar, tashrif buyuruvchilar, xodimlar va laboratoriya namunalari oqimlarining kesishishi yoki bir-biriga yaqinlashishini istisno etishi kerak. Shu maqsadda bemorlar, xodimlar va tashrif buyuruvchilar uchun yuqumli kasallik xavfini baholash asosida xonalar yuqori, o'rta va past yuqish xavfi zonalariga ajratilishi lozim.

37. Muassasalarda nogironlar va aholining kam harakatlanuvchi guruhlari uchun amaldagi me'yoriy hujjatga muvofiq qulay kirish va yashash sharoitlari yaratilgan bo'lishi shart.

38. Davolash-tashxis jarayonini o'tkazish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, bemorlarning yaxshi dam olishi va tibbiyot xodimlari mehnatining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ilova qilingan jadvallarda ko'rsatilgan alohida xonalarning maydonlari kengaytirilishi mumkin*.

Ilova qilingan jadvallarda ko'rsatilmagan xonalarning maydonlari loyihalash topshirig'i asosida belgilanadi. Ular asbob-uskunalarining o'lchamlari va joylashuvi, xonada bir vaqtda bo'ladigan shaxslar soni, texnologik jarayonlarning ketma-ketligi hamda me'yoriy masofalar asosida aniqlanadi. Bunda asbob-uskunalarining oqilona joylashtirilishi va bemorlar hamda xodimlarning erkin harakatlanishi ta'minlanishi lozim*.

39. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, litseylar, kollejlar, shifokorlar malakasini oshirish institutlari hamda sog'liqni saqlash tizimidagi ilmiy-tadqiqot institutlarining o'quv yoki ilmiy bazasi hisoblangan muassasalarda qo'shimcha ravishda talabalar va kursantlar uchun o'quv xonalari, o'qituvchilar uchun xonalar, shuningdek davolash muassasasining asosiy funksional bo'limlaridan alohida joylashgan yordamchi xonalar (kiyim almashtirish xonalari, hojatxonalar, omborxonalar va boshqalar) nazarda tutilishi zarur*.

40. Binolarni rejalashtirishda palata derazalari ostida qabul-ko'rik bokslarini, qabul bo'limiga kirish joylarini, tara, yuklash, jo'natish va avtomobillar kira oladigan boshqa xonalarni joylashtirish taqiqlanadi*.

41. Binolarning yerto‘la va tsiokol qavatlarida xonalarni joylashtirish davolash-profilaktika muassasalarini loyihalash, qurish va ulardan foydalanish bo‘yicha amaldagi sanitariya qoidalar va me‘yorlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

42. Shovqin va tebranish manbai bo‘lgan texnologik uskunalarni bemorlar palatalari, davolash-diagnostika va muolaja xonalari yaqinida joylashtirish taqiqlanadi. Tovush bosimi va tebranish darajalari sanitariya qoidalarida belgilangan ruxsat etilgan chegaralardan oshmasligi shart.

43. Rentgen kabinetlari va kompyuter tomografiyasi xonalarini, shuningdek radioaktiv moddalar bilan ishlash bilan bog‘liq xonalarni joylashtirish rentgen kabinetlari, apparatlari va rentgen tekshiruvlarini o‘tkazishning tuzilishi hamda ulardan foydalanishning gigiyenik talablariga, shuningdek boshqa amaldagi me‘yoriy hujjatlarga muvofiq ravishda amalga oshiriladi.

44. Yuqori xavfli bo‘linmalar, aseptik rejimli xonalar, palata bo‘limlari, nur tashxisi va davolash bo‘limlari, rentgen bo‘limi va kompyuter tomografiyasi bo‘limi, shuningdek yopiq texnologik siklga ega boshqa bo‘linmalar (laboratoriya, oshxona, OTS, dorixona, kir yuvish xonasi) o‘tkinchi bo‘lmasligi kerak. Bundan tashqari, sil kasalligi yuqish xavfi yuqori bo‘lgan xonalar xodimlar hozirligida xonalarning yuqori qismidagi havoni zararsizlantirish uchun ekranlangan ultrabinafsha bakteritsid nurlantirgichlar bilan jihozlanishi lozim. Har 20 kvadrat metr maydon uchun 30 nominal vatt quvvatiga ega bo‘lgan 1 ta nurlantirgich o‘rnatilishi kerak.* Nurlantirgichlarni o‘rnatish va ularga xizmat ko‘rsatish malakali xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim. Bunda xonalarning yuqori (shift osti) va pastki (odamlar bo‘ladigan) qismlarida UV-S radiometr va 254 nm sensorli datchik yordamida nurlanish darajasi nazorat o‘lchovlari o‘tkazilishi shart.

45. Palatalardagi shovqin darajasi turar-joy va jamoat binolari uchun belgilangan gigiyenik me‘yorlardan oshmasligi kerak.

46. Laboratoriyalarda, yuqori transmissiya xavfiga ega bo‘linmalarda, shuningdek nogironlar va harakati cheklangan fuqarolar palatalarida eshiklarni ochish va yopish uchun katta kuch talab qilmaydigan hamda nogironlar aravachasidagi shaxslarga noqulaylik tug‘dirmaydigan moslamalardan foydalanish zarur.

47. Silga qarshi kurashish muassasalari xonalarining tarkibi, soni va maydonlari qurish yoki qayta qurish loyihasini ishlab chiqish topshirig‘ida* belgilanadi.

48. Sil kasalligiga qarshi statsionarning dori vositalarga keng chidamli bemorlar uchun bo‘limlari va palliativ davolash bo‘limlari ham ushbu bemorlar kontingentini boshqa toifadagi bemorlar va tashrif buyuruvchilardan tegishli ravishda ajratib turish maqsadida qurilishi yoki qayta jihozlanishi lozim*.

49. Sil kasalligiga gumon qilingan, OIV infeksiyasi bo‘yicha to‘liq tekshiruvdan o‘tmagan musbat shaxslarni tashxis qo‘yish maqsadida sil kasalligiga qarshi kurashish statsionariga yotqizishga yo‘l qo‘yilmaydi.

50. Yangi ishga qabul qilinayotgan har bir xodim muassasadagi kasbiy xavf va yuqumli kasalliklarni nazorat qilish chora-tadbirlari tizimi haqida yo'riqnoma olishi shart.

51. Kontakt infeksiyalar va parazitlar invaziyalar tarqalishining oldini olish uchun sil kasalligiga qarshi kurashish statsionarlarida dezinfeksiya-kamera bloki ko'zda tutilishi lozim. Uning tarkibi va maydoni ishlov beriladigan ko'rpa-to'shaklar soniga qarab belgilanadi. O'zining dezinfeksiya kamerasi bloki bo'lmagan hollarda, ko'rpa-to'shaklarni dezinfeksiya qilish boshqa dezinfeksiya stansiyalarining dezinfeksiya bo'limlarida va hududiy DSENmlarda amalga oshirilishi mumkin.

52. Kir yuvxona, dezinfeksiya-kamera bloklari va ovqatlanish bloklariga qo'yiladigan gigiyenik talablar amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tartibga solinadi.

5-bob. Qabul bo'limi xonalarining tarkibi va maydonlari

53. Sil kasalligiga qarshi kurashish statsionarining qabul bo'limi xodimlar va bemorlar uchun sanitariya o'tkazgichlarini tashkil etish orqali boshqa bo'limlardan alohida va ajratilgan bo'lishi, binoning izolyatsiyalangan qismida, birinchi qavatda, imkon qadar kasalxona hududiga asosiy kirish joyi yaqinida joylashtirilishi lozim (4-ildovaga qarag'ani). Bemorlarni qabul qilish uchun kamida ikkita qabul-ko'rik bokslari ko'zda tutilishi kerak. Qabul bo'limlaridagi kutish joylari me'moriy jihatdan maksimal tabiiy shamollatishga moslashtirilgan va ekranlangan UFBI nurlantirgichlari bilan jihozlangan bo'lishi shart.*

54. Qabul bo'limi bemorlarning quyidagi zanjir bo'yicha uzluksiz harakatlanishini ta'minlashi kerak: vestibul - ko'rik xonasi - sanitariya o'tkazgichi - davolash bo'limi. Reanimatsiya tadbirlariga muhtoj bemorlarni qabul bo'limini chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limiga yotqizishga ruxsat etiladi.

55. Sil kasalligi bilan og'rikan bemorlarni qabul qilish qat'iy ravishda yakka tartibda amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq bemorning bir xonada bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

56. Qabul bo'limlari orqali bir sutka davomida kasalxonaga yotqiziladigan bemorlarning taxminiy sonini kasalxona yoki tegishli bo'limdagi o'rinlar soniga qarab belgilash lozim: sil kasalliklari shifoxonalarida 2% ni tashkil etadi. Anesteziologiya va reanimatsiya hamda intensiv terapiya bo'limiga yotqizilgan bemorlar soni bu hisob-kitobga kiritilmaydi.

Sil kasalligiga qarshi muassasalar qabul bo'limi xonalarining tarkibi va maydoni*

№	Xonalar nomi	Statsionar sig'imiga qarab xonalar maydoni, m ²						
		50 100	101 200	201 350	351 400	401 500	501 600	601 va
1.	Kutish xonasi vestibuly	12	12	16	18	20	22	24
2.	Ro'yxatga olish xonasi	6	6	6	8	8	8	8
3.	Sanitariya nazorat punkti	1,5x2	1,5x2	1,5x2	3x2	3x2	3x2	3x2
4.	Qabul qilish - tamburli ko'rik boksi*	1,5 + 12,0	1,5+ 12,0	1,5+ 12,0	1,5+ 12,0	1,5+ 12,0	1,5+ 12,0	1,5+ 12,0
5.	Muolaja xonasi	12	12	12	12	12	12	12
6.	Bakteriologik tahlil uchun namuna olish xonasi	10	10	10	10	10	10	10
7.	Rentgenologiya xonasi	Amaldagi me'yoriy hujjatga muvofiq						
8.	Bo'lim mudiri xonasi	12	12	12	12	12	12	12
9.	Katta hamshira xonasi	12	12	12	12	12	12	12
10.	Xodimlar xonasi	4	4	6	6	8	8	10
11.	Hojatxonalar	3 x 2	3 x 2	3 x 2	3 x 2	3 x 2	3 x 2	3 x 2
12.	Tozalash jihozlari va dezinfektsiya vositalari uchun omborxona	4	4	4	4	4	4	4
13.	Diagnostika xonalari	Amaldagi me'yoriy hujjatga muvofiq						

57. Sil kasalliklariga qarshi statsionarlarda (bo'limlarda) bolalar palatalarini yo'laklardan ajratib turuvchi devorlar va to'siqlarda, shuningdek 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun palatalar orasidagi devorlar va to'siqlarda o'lchamlari loyihalash topshiriqlari bilan belgilanadigan oynali teshiklar ko'zda tutilishi lozim; palatalar yonida ttuphojatxonali shlyuzlar bo'lishi kerak. Bokslarda ovqat, dori-darmon va kiyim-kechak uzatish uchun derazalar bo'lishi lozim.*

58. Sil kasalliklari statsionarlarida (bo'limlarida)* bemor bolalarni qabul qilish uchun bokslar va qabul-ko'rik bokslari ko'zda tutilishi lozim. Bokslar 8.4-bandga muvofiq joylashtiriladi.

59. 100 o'rindan ortiq bo'lgan statsionarlarning qabul bo'limlarida anesteziologiya va reanimatsiya yoki reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlari mavjud bo'lmagan hollarda reanimatsiya boksini* ko'zda tutish lozim.

6-bob. Palata bo'limi xonalarining tarkibi va maydonlari

60. Palata bo'limlari asosiy xonalarining tarkibi va maydonlari 5, 6-jadvallarga va loyihalashtirish topshirig'iga* muvofiq belgilanishi kerak.

Bo'lim 30 o'ringa mo'ljallangan bo'lsa, 1 va 2 o'rinli palatani ko'zda tutish zarur. Bitta palatada 4 tadan ortiq o'rinni joylashtirish mumkin emas. Seksiyada o'rinlarning tavsiya etiladigan taqsimoti quyidagicha: 3 o'rinli 8 ta palata, 2 o'rinli 2 ta palata va 1 o'rinli 2 ta palata*.

61. Kasalxonalar, poliklinikalar va dispanserlarning palata bo'limlari xonalari yer usti qavatlarida joylashtirilishi lozim.

62. Davolash-dagnostika korpuslarini yerto'la va tsokol qavatlarida joylashtirish davolash-profilaktika muassasalariga oid amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

4-jadval

Bo'limlar palatalarining maydonlari*

№	Xonalar nomi	m ²
1	Kattalar uchun palatalar	2
2	Bolalar uchun palatalar:	9
	onalar uchun joy bo'lmagan palatalarda	7
	onalar kechayu kunduz bo'ladigan	12
3	Intensiv terapiya, operatsiyadan keyingi	13

63. Ventilatsiya kameralari, sovutish mashinali kameralar, elektr shitlar xonalari, liftlar va ko'targichlarning mashina bo'limlari va shaxtalari hamda shovqin va tebranish manbalari bo'lgan boshqa xonalar, shuningdek avtoklav va dezinfeksiya kameralari palatalar, davolash va muolaja xonalari bilan yonma-yon, ularning ustida yoki ostida joylashtirilmasligi lozim.

64. Loyihada ko'zda tutilgan muassasa xonalari rejasini o'zgartirish, shuningdek xonalardan bevosita funksional vazifasiga ko'ra foydalanmaslik amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

65. Muassasaning loyihada belgilangan quvvatidan ortiq qo'shimcha kasalxona o'rinlarini joylashtirish, shuningdek bemorlarni yo'laklarga va palata bo'limlarining boshqa moslashtirilgan xonalariga joylashtirish taqiqlanadi.

7-bob. Operatsiya bloki xonalarining tarkibi va maydonlari

66. Operatsiya bloklari* alohida izolyatsiyalangan qurilmada (alohida binoda yoki statsionar bilan o'tish yo'llari yoki yo'laklar orqali bog'langan izolyatsiyalangan bo'limlarda) joylashtiriladi va vertikal kommunikatsiyalardan (texnik shaxtalar, liftlar,

axlat quvurlaridan) iloji boricha uzoqroqda bo'lishi hamda o'tish joyi sifatida ishlatilmasligi kerak.

Xodimlar uchun operatsion bloklarga kirish joylari sanitar o'tish punktlari orqali tashkil etilishi shart.

5-jadval

Statsionarlarning asosiy xonalari tarkibi va maydonlari*

№	Xonalar nomi	Maydoni, m ²
1.	Muolaja xonasi	12
2.	Septik bog'lov xonasi (jarrohlik bo'limiga ega bo'lgan statsionarlar uchun)	14
3.	Aseptik bog'lov xonasi (jarrohlik bo'limiga ega bo'lgan statsionarlar uchun)	14
4.	Ordinatorlik xonasi	har bir shifokor uchun 6, lekin kamida 32
5.	Katta hamshira xonasi	12
6.	Xo'jalik ishlar bo'yicha hamshira xonasi	10
7.	Kir kiyimlarni to'plash xonasi	4
8.	Ovqat tarqatish xonasi	10
9.	Oshxona	Bir o'tirish joyiga 1,2
10.	Tibbiy xodimlar uchun sanitariya xonasi	3x2
	Bemorlar uchun sanitariya xonasi	3x2
11.	Dush xonasi	6
12.	Klizma xonasi*	8
13.	Tozalash anjomlarini saqlash xonasi	4
*Klizma xonasi bo'lim profiliga qarab tashkil etiladi.		

67. Operatsiya blokidagi oqimlar, odatda, quyidagilarga bo'linishi lozim: "steril" - jarrohlar, operatsion hamshiralar o'tishi uchun; "toza" - bemorni olib kelish, anesteziologlar, kichik texnik xodimlar o'tishi, toza choyshab va dori-darmonlar yetkazib berish uchun; "iflos" - chiqindilarni, ishlatilgan choyshablarni va boshqalarni olib chiqish uchun. Bu oqimlar bir-biri bilan kesishmasligi yoki tutashmasligi kerak.

68. Operatsiya xonalari statsionar bakteritsid ultrabinafsha nurlantirgichlar bilan jihozlangan bo'lishi lozim. Havo muhitini kvars bilan zararsizlantirish joriy, umumiy tozalash yoki yakuniy dezinfeksiya o'tkazilgandan so'ng va operatsiyadan oldin amalga oshirilishi shart.

Operatsion bloklarning asosiy va yordamchi xonalarining tarkibi va maydonlari 6-jadvalda keltirilgan me'yorlarga muvofiq bo'lishi kerak.

Operatsiya blokining asosiy va yordamchi xonalari tarkibi va maydonlari*

№	Xonalar nomi	Maydoni m² (kamida)
1.	Umumiy profilli operatsiya xonasi	36
2.	Operatsiyadan oldingi xona: - bitta umumiy profilli operatsiya xonasi uchun - ikkita umumiy profilli operatsiya xonasi uchun	12 15
3.	Material saqlash xonasi	4
5.	Asbob-uskunalar xonasi	6
6.	Asboblarni, shu jumladan endoskopik jihozlarni qismlarga ajratish va zararsizlantirish xonasi	har bir operatsiya xonasi uchun 4, lekin kamida 10
7.	Narkoz-nafas olish apparatini yuvish va zararsizlantirish xonasi	12
9.	Ko'chma jihozlar ombori **	15
10	Jarrohlar xonasi **	har bir shifokor uchun 4, lekin kamida 12-18
11	Katta hamshira xonasi (septik va aseptik bo'limlar uchun umumiy) * *	10
12	Hamshiralar xonasi **	har bir hamshiraga 3, ammo kamida 10
13	Toza kiyim-kechak ombori **	6
14	Kir kiyim-kechak va operatsiyadan keyingi chiqindilarni saralash hamda vaqtincha saqlash	6
15	Tozalash anjomlari, dezinfeksiyalovchi vositalarni tayyorlash va saqlash xonasi **	6
16	Xodimlar uchun sanitariya o'tish joyi **	har bir operatsiya xonasiga 3-6

1 Loyihalash topshirig'iga ko'ra

2 * Yuqorida ko'rsatilgan xonalarning mavjudligi 2 tadan ortiq operatsiya zali bo'lgan operatsiya bloklarida zarur.

2 tadan ortiq operatsiya zali bo'lgan operatsiya bloklarida tozalash anjomlari va dezinfeksiyalovchi vositalarni saqlash uchun 2 ta omborxona ko'zda tutiladi.

8-bob. Sil kasalxonalari (bo'limlari) yarim boks xonalarining tarkibi va maydonlari *

69. Ko'p va keng dorilarga chidamli sil kasalligi bilan og'rigan bemorlarni alohida binoga joylashtirish lozim. Bu binoda soatiga kamida 6 marta havo almashinuvini ta'minlaydigan, manfiy bosimli va havoni xavfsiz chiqarib yuboradigan mexanik shamollatiladigan palatalar (yarim bokslar) bo'lishi kerak.* Palatalar (yarim bokslar) xonalarining yuqori qismi uchun ekranlangan UFBI-nurlantirgichlar bilan jihozlanishi lozim*.

70. Devorlar, to'siqlar, eshiklar va ko'rish oynalari yo'laklarga infeksiya kirishini to'liq bartaraf etishi kerak.

71. Yarim boksdagi o'rinlar soni 2 tadan oshmasligi lozim.

72. Xodimlar uchun xonalar bemorlar joylashgan hududlardan ajratilgan bo'lishi kerak.

9-bob. Sil kasalligiga chalingan bemorlarni majburiy davolash uchun ixtisoslashtirilgan sil kasalxonasi bo'limiga qo'yiladigan talablar*

73. Sil kasalligiga chalingan bemorlarni majburiy davolash bo'limi* alohida binoda joylashgan bo'lishi, atrofi o'ralgan sayr hovlisiga ega bo'lishi, boshqa bo'limlardagi bemorlar bilan aloqa qilish va o'zboshimchalik bilan chiqib ketish imkoniyatini istisno etishi kerak.

74. Bo'limning o'zida palatalar va bokslar binoning bir tomonida joylashtirilishi lozim.

75. Palata bo'limlarining asosiy xonalari tarkibi va maydonlari 5-jadvalga muvofiq belgilanishi kerak.

76. Bo'limda bokslar ko'zda tutilishi shart*. Boks tarkibiga quyidagilar kirishi kerak: hojatxona va vannadan iborat sanitariya tuguni, palata hamda palata bilan yo'lak orasidagi shlyuz. Bundan tashqari, boksning tashqariga chiqish uchun tamburi bo'lishi lozim.

77. Bokslarda ovqat, dori-darmon va kiyim-kechak uzatish uchun derazalar ko'zda tutilishi kerak.

78. Bo'limda nam tozalash kuniga kamida 2 marta, shundan 1 marta dezinfeksiya vositalari yordamida o'tkaziladi. Umumiy tozalash haftada 1 marta amalga oshiriladi. Havo muhitini zararsizlantirish xonaning yuqori qismini doimiy ravishda UB-nurlantirgich bilan nurlantirish orqali amalga oshiriladi, bu nurlantirgich bemorlarni to'g'ridan-to'g'ri UB-nurlar ta'siridan himoya qiluvchi ekranga ega. UB-nurlantirgichlar bo'lmagan taqdirda, kvars lampasi bilan nurlantirish har kuni ish boshlanishidan oldin va ish smenasi oxirida o'tkaziladi.

79. Balg'am yig'ish xonasi yo'lakning alohida qismida, bemorlar palatalaridan va shifokor xonasidan uzoqda joylashishi kerak.

80. Xonalarning ichki pardozi, sanitariya-texnik, tibbiy, texnologik va boshqa jihozlar, mebel hamda inventarlarga qo'yiladigan talablar SanQvaM 0292-11 ga muvofiq ko'rib chiqilishi lozim.

81. Yuqumli bemorlar uchun mo'ljallangan boks yoki yarim bokslarda, albatta, havo kiritish-chiqarish ventilyatsiyasi yoki tabiiy shamollatish tizimi bo'lishi shart. *

82. Yuqori infeksiya xavfi mavjud bo'lgan muassasalarning barcha xonalarini mexanik qo'zg'atishli havo kiritish-so'rish tizimi bilan jihozlash tavsiya etiladi. Tortuvchi ventilyatsiyani har bir boks va yarim boksdan hamda deflektor o'rnatilgan holda, keluvchi ventilyatsiyani esa mexanik qo'zg'atish va koridorga havo uzatish bilan o'rnatish zarur. Palatalardan havoni so'rib olish amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq alohida kanallar orqali amalga oshirilishi kerak. *

83. Palatalar va boshqa xonalarni darchalar, framugalar, eshik-derazalar orqali shamollatishni yilning sovuq faslida sutkasiga kamida 4 marta va yilning iliq faslida doimiy ravishda amalga oshirish lozim.

84. Bo'lim xonalarida umumiy sun'iy yoritish ko'zda tutilishi kerak. Alohida funksional hududlar va ish joylarini yoritish uchun, bundan tashqari, mahalliy yoritish o'rnatiladi.

85. Bo'limda bemorlarning hordiq chiqarishi uchun xoll ajratilishi va ovqat tarqatish hamda qabul qilish uchun xona tashkil etilishi kerak (ekranlangan UFBI nurlantirgichlari bilan jihozlangan*). Sayr qilish hovlisida yomg'ir va quyoshdan himoyalovchi bemorlar uchun soyabonlar o'rnatilgan bo'lishi lozim.

86. Palata bo'limlarining sanitariya xonalari idishlar, kleyonkalar va boshqalarga ishlov berish uchun zarur vositalar va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

87. Bo'limdagi hojatxonalar soni erkaklar uchun har 15 kishiga 1 ta qurilma va ayollar uchun har 10 kishiga 1 ta qurilma hisobidan belgilanishi lozim, biroq har bir hojatxonada kamida 1 ta qurilma bo'lishi kerak. Erkaklar hojatxonasidagi pissuarlar soni unitazlar soniga teng bo'lishi lozim*.

88. Dush kabinalari soni har 10 kishiga 1 ta dush kabinasi hisobidan belgilanadi*.

89. Har bir tarkibiy bo'linmada xodimlar uchun kamida 10 m² maydonli, sovutgichlar, elektr suv isitgichlar va qo'l yuvish uchun rakovinalar bilan jihozlangan xonalar bo'lishi shart*.

10-bob. Klinik-dagnostika laboratoriyalari

90. Klinik-dagnostika laboratoriyasi (KDL) mustaqil tarzda yoki muassasa tarkibida bo'lim sifatida tashkil etilishi mumkin. U muassasaning quvvati va

yo'nalishiga qarab turli xil laboratoriya tekshiruvlarini (umumiy klinik, biokimyoviy, immunologik, serologik, mikrobiologik va boshqalar) o'tkazish uchun mo'ljallangan.

91. KDLni davolash-dagnostika bo'limlari guruhida, palata bo'limlari, qabul bo'limi, operatsiya bloki, anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi bilan qulay aloqada joylashtirish maqsadga muvofiq.

92. KDL o'tkinchi bo'lmagan hududda joylashtirilishi lozim.

93. Rejimli laboratoriyalar (mikrobiologik, PZR va boshqalar) boshqa tashxis bo'limlaridan ajratilgan bo'lishi shart. Ularga tahlil uchun materiallar alohida kirish joyi orqali keltirilishi lozim. Mikrobiologik laboratoriya kirishida biologik xavf, kirish cheklovi, yuqumli agent sinfi va mas'ul shaxsning aloqa ma'lumotlari ko'rsatilgan maxsus belgi o'rnatilishi kerak.

94. Yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan amaliyotlar o'tkaziladigan mikrobiologik laboratoriya xonalari maxsus shlyuz bilan ajratilgan alohida izolyatsiyalangan blokka joylashtiriladi. Yuqori xavfli blokda qo'shni xonalarga nisbatan manfiy bosim hosil qilish va soatiga 12 marta havo almashinuvini ta'minlash uchun dag'al tozalash filtrlarida kelayotgan havoni filtrlash imkoniyatiga ega mexanik ventilyatsiya va so'rish tizimi bo'lishi, shuningdek, himoyalangan ultrabinafsha bakteritsid nurlatgichlar o'rnatilgan bo'lishi shart.

95. Laboratoriyalar zamonaviy jihozlar bilan ta'minlangan taqdirda, bevosita tadqiqotlar uchun mo'ljallangan xonalarning qisqartirilgan to'plamiga ruxsat etiladi.

96. Prekursorlar (kislotalar va boshqalar) qo'llanilganda, ularni saqlash xonasi so'ruvchi ventilyatsiya, suv bilan ta'minlangan rakovina, temir eshik, panjarali derazalar va signalizatsiya tizimi bilan jihozlangan bo'lishi lozim.

97. Funktsional diagnostika bo'limlari (xonalari), markazlashtirilgan sterilizatsiya bo'limi (punkti) va patologoanatomya bo'limi amaldagi me'yoriy hujjatga muvofiq tartibga solinadi.

11-bob. Xonalarning ichki bezagiga qo'yiladigan talablar

98. Silga qarshi muassasalar xonalarining ichki pardozi ularning funksional vazifasiga muvofiq bajarilishi kerak: xonalarning devorlari, to'siqlari va shiftlarining yuzasi nam tozalash va dezinfeksiya qilish uchun qulay bo'lishi lozim.

99. Tibbiy texnika, mebel, uskunalar, qurilish va Pardozlash materiallari gigiyenik talablarga javob berishi shart.

100. Quruq rejimli palatalar, shifokorlar xonalari, holl, vestibyul, oshxona, fizioterapiya va boshqa davolash-dagnostika xonalarining devorlarini silikat bo'yoqlar (zarurat tug'ilganda - moy bo'yoqlar bilan birgalikda) yoki yuviluvchi gulqog'ozlar bilan qoplash tavsiya etiladi. Bu xonalarning shiftlarini pardozlashda ohak yoki suv emulsiyali oqlash* qo'llanilishi mumkin.

Laboratoriya xonalarining tarkibi va maydoni*

№	Xonalar	Maydon				
		Kunlik tahlillar soni				
		100 gacha	250 gacha	450	650	800
Statsionar bemorlardan olingan tahlillarni qabul qilish va roʻyxatga olish						
1.	Namunalarni qabul qilish va saralash hamda natijalarni berish xonalari	-	10	12	16	20
Tahlil oʻtkazish xonasi						
	Klinik boʻlim					
2.	Siydik, axlat, balgʻam va meʻda shirasi yigʻish va tayyorlash xonasi	8	10	12	12	12
3.	Siydik, axlat, balgʻam va meʻda shirasini tekshirish xonalari	Har bir tur uchun 4 tadan, lekin kamida 12	Har bir tur uchun 4 tadan, lekin kamida 12	12	16	18
4.	Sentrifugalash xonasi	-	4	6	6	12
5.	Suyuqlik toʻkish joyi bilan	-	4	8	10	10
Gematologiya boʻlimi*						
6.	Qon olish xonasi	10	10	10	10	10
7.	Namunalarni boʻyash xonasi	-	-	6	10	10
8.	Qonning morfologik tahlillari uchun tadqiqot xonasi **	-	12	12	16	16
Biokimyoviy boʻlim*						
9.	Qonning biokimyoviy tekshiruvlari uchun laborant xonalari	12	12	12x2	12x2	12x3
10.	Siydikning gormonal tekshiruvlari uchun xonalar	-	-	18	18	18
11.	Siydikning biokimyoviy tekshiruvlari uchun laborant xonasi		12	12	12	12
12.	Sentrifugalash xonasi		4	6	6	12
13.	Yuvish xonasi	4	12	12	12	12

14.	Yangi usullarni o'zlashtirish xonasi	-	-	-	16	16
15.	IFA uchun tadqiqot xonasi	12	12	12	16	16
Mikrobiologiya bo'limi						
21.	Tahlillarni qabul qilish va ro'yxatga olish xonasi	5	5	5	5	5
22.	Mikrobiologik preparatoriya	18	18	18+2	18+2	18+3
23.	Boks va oldi boksli xona	4+2	4+2	4+2	4+2	4+2+2
24.	Termostat xonasi	-	-	-	3	3
25.	Zararsizlantirish uchun avtoklav xonasi	10	10	10	12	12
26.	Ozuqa muhitlarini sterilizatsiya qilish uchun avtoklav xonasi	10	10	10	12	12
27.	Ichak infeksiyasi guruhi uchun boks va oldi boksli xona	12+4	12+4	12+4	12+4	12+4
28.	Tomchi infeksiyasi guruhi uchun boks va oldi boksli xona	12+4	12+4	12+4	12+4	12+4
29.	Sanitariya-bakteriologik tekshiruvlar o'tkazish uchun boks va oldi boksli xona	12+4	12+4	12+4	12+4	12+4
30.	Mikroflora tekshiruvlarini o'tkazish uchun boks va oldi boksli xona	12+4	12+4	12+4	12+4	12+4
31.	Mikrobiolog-shifokor xonasi	12	12	12	12	12
32.	Ozuqa muhitlarini tayyorlash va quyish xonasi	8	8	8	8+3	11+5
33.	Yuvish xonasi	12	12	12	12	12
Serologiya bo'limi						
34.	Serologik va immunologik tekshiruvlar xonasi	12	12	12	12	12
41.	Oqava suvli laboratoriya idishlarini yuvish xonasi	4	4	4	4	4
Umumiy xonalar						
42.	Mudirning (shifokorning) xonasi		12	12	12	12
43.	Moddiy-texnik ta'minot	4	6	6	8	12

44.	Iflos kiyimlar va xona tozalash anjomlari ombori		4	4	4	4
45.	Kislota va ishqorlar ombori (prekursorlar)	4	6	6	6	6
46.	Omborxona tez alangalanuvchi va yonuvchan suyuqliklar	-	6	6	6	6
47.	Sanitariya xonasi	1,2	3	3	3	3
48.	Xodimlar xonasi		8	8	10	12
49.	Garderob***		10	10	10	10
* zamonaviy uskunalar mavjud bo'lganda bu laboratoriyalarning xonalarini birlashtirish mumkin * *kichik laboratoriyalarda qonning biokimyoviy va morfologik tekshiruvlari xonalarini birlashtirish mumkin * **Garderob faqat maxsus rejimli laboratoriyalar uchun mo'ljallangan.						

101. Pollarni qoplashda suv o'tkazmaydigan materiallardan foydalanish lozim. Pol qoplamasi asosga zich yopishib turishi kerak. Devor va pollarning tutashgan joyi yumaloq kesimli, choklar esa germetik bo'lishi shart. Linoleum qoplamalari ishlatilganda, uning chetlari devor yonida plintus ostiga kiritilishi yoki devorga ko'tarilishi mumkin. Bir-biriga tutashgan linoleum varaqlarining choklari payvandlanishi, pollar esa yuqori darajada issiqlik izolyatsiyasi xususiyatiga ega bo'lishi kerak (parket, parket taxtasi, moy bo'yoq bilan bo'yalgan yog'och pollar). Operatsiya, narkoz va shunga o'xshash boshqa xonalarning pollari uchqun chiqarmaydigan, antistatik (amaldagi me'yorlarga muvofiq) bo'lishi shart*. Vestibyullardagi pollar mexanik ta'sirlarga chidamli bo'lishi lozim (marmar, keramik plitkalar va boshqalar). Shamollatish kameralaridagi pollar chang hosil qilmaydigan qoplamaga ega bo'lishi kerak.

102. Nam rejimda ishlaydigan xonalarning, shuningdek, nam dezinfeksiya o'tkaziladigan xonalar (operatsiya, bog'lash, operatsiyadan oldingi, narkoz, muolaja va boshqa shunga o'xshash xonalar, hamda vannaxonalar, dushxonalar, sanitariya uzellari, klizma xonalari, kir kiyimlarni saqlash va ajratish xonalari va boshqalar) devorlari to'liq balandlikda sirlangan plitkalar yoki boshqa namlikka chidamli materiallar bilan qoplanishi lozim. Nam rejimli xonalarning shiplari suvga chidamli (moyli va boshqa) bo'yoqlar yoki zamonaviy materiallar bilan bo'yalishi kerak.

**Barcha tarkibiy bo'linmalar uchun tavsiya etiladigan umumiy yordamchi,
xizmat va maishiy xonalar***

№	Xonalar	Maydoni, m²
1	Bo'lim mudirining xonasi	12
2	Xodimlar xonasi	12
3	Katta hamshira xonasi	10
4	Ordinatorlar xonasi	har bir shifokor uchun 6, lekin kamida 12
5	Navbatchi shifokor xonasi	12
6	Talabalar xonasi*	har bir talaba uchun 1,8
7	O'qituvchilar xonasi*	12
8	Bo'lim xo'jalik hamshirasi xonasi	8
9	Toza choyshab va ko'rpa-to'shaklarni	4
10	Sarflanadigan materiallar va dori-darmonlarni saqlash xonasi	4
11	Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni saqlash xonasi	4
12	Tibbiy arxiv	bir o'ringa 0,3, 100 ta tashrif uchun 4 bir smenada, ammo kamida 12
13	Konferens-zal (estrada va o'rindiqlarning yozuv taxtachalari bilan jihozlanishini	bir o'ringa 0,9
14	Bemorlarning buyumlari saqlanadigan	bir o'ringa 0,2
15	Xodimlarning ko'cha kiyimlari garderoibi*	bir ilgakka 0,08
16	Xodimlarning uy va ish kiyimlari garderoibi*	bir individual shkafga 0,5
17	Tashrif buyuruvchilar uchun vestibul-garderoib*	har bir tashrif buyuruvchiga 0,5
18	Davolash va tashxis xonalaridagi bemorlar uchun kiyim almashtirish xonasi	bir o'ringa 1,3, ammo kamida 2
19	Xodimlar uchun qo'l yuvgichli hojatxona	3
20	Xodimlar uchun dush*	3
21	Iflos choyshablarni vaqtincha saqlash	4
22	Tozalash anjomlari va dezinfeksiyalovchi eritmalarni saqlash xonasi	4
23	Tibbiy chiqindilarni vaqtincha saqlash	4
24	Sanitariya xonasi (iflos choyshablar, tibbiy chiqindilarni vaqtincha saqlash, tuvaklar	8
25	Ko'chma rentgen apparati, ko'chma uskunalar saqlanadigan xona*	8
26	Oqava suv to'kish xonasi	2

*Oliy va o'rta ta'lim muassasalarining o'quv bazalari yoki klinikalari bo'lgan taqdirda

103. Rakovinalar, boshqa santexnik asboblari va jihozlar o'rnatilgan joylarda, ularni ishlatish qo'shni devorlar va to'siqlarni namlanishiga olib kelsa, poldan 1,6 m balandlikda va jihozlar hamda asboblarning ikkala tomonidan 20 sm dan ortiq kenglikda sirlangan plitkalar yoki boshqa namlikka chidamli materiallar bilan pardozlanishi lozim*.

104. Radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nurlanishlarning boshqa manbalari bilan ishlash bilan bog'liq xonalar, rentgen kabinetlari, elektr-yorug'lik bilan davolash kabinetlari, tish davolash, oftalmologiya kabinetlari, klinik va biokimyoviy laboratoriyalar va o'ziga xos xususiyatlari maxsus sharoitlarni talab qiladigan boshqa funksional xonalarni pardozlash tegishli "Sanitariya qoidalari", "Foydalanish bo'yicha yo'riqnomalar"da bayon etilgan ushbu xonalarga qo'yiladigan talablarga, shuningdek amaldagi GOST, tarmoq standartlari va TU* ga muvofiq bajarilishi shart*.

105. Turli konstruksiyali osma shiftlarni qo'llash faqat epidemiyaga qarshi, dezinfektsiya rejimi, aseptika va antiseptika talab qilinmaydigan xonalarda ruxsat etiladi: vestibyullar, koridorlar, xollar hamda operatsiya, bog'lov, muolaja xonalari va shunga o'xshash boshqa xonalarga bevosita tutashmagan yordamchi xonalarda. Bunda osma shiftlarning konstruksiyalari va materiallari ularni tozalash va dezinfektsiya qilish imkonini ta'minlashi lozim*.

12-bob. Sanitariya-texnik, tibbiy, texnologik va boshqa jihozlar, mebellar, inventarlarga qo'yiladigan talablar

106. Barcha yangi qurilayotgan (ishlab turganlarida - imkon qadar) sil kasalligiga qarshi muassasalar suv quvuri, kanalizatsiya, markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti, issiqlik ta'minoti, shamollatish tizimi (zarurat tug'ilganda - havoni konditsiyalash tizimlari) bilan jihozlangan va mazkur aholi punktida mavjud bo'lgan elektr, telefon tarmoqlari hamda boshqa muhandislik kommunikatsiyalariga ulangan bo'lishi shart. Balandligi 4 va undan ortiq qavatli binolar liftlar bilan jihozlanishi zarur*. Kerak bo'lganda markazlashtirilgan (vakuumli va boshqa) chiqindilarni chiqarish qurilmalari va boshqa mexanizatsiya vositalari o'rnatiladi*.

107. Oqova suvlarni tozalash va zararsizlantirish mahalliy tozalash inshootlarida (xlorli) oqova suvlar oldindan zararsizlantirilgandan so'ng*, oqova suvlarni samarali tozalash va zararsizlantirishni kafolatlaydigan umumshahar yoki boshqa kanalizatsiya tozalash inshootlarida amalga oshirilishi lozim.

Umumshahar yoki boshqa tozalash inshootlari mavjud bo'lmagan holatlarda, silga qarshi kurashish muassasasining oqova suvlari to'liq biologik tozalash bilan mahalliy inshootlarda tozalanishi va zararsizlantirilishi shart.

108. O'ziga xos (operatsiyadan keyingi, patologoanatomik va boshqa) kasalxona chiqindilari majburiy ravishda maxsus pechlarda markazlashtirilgan holda yoqilishi

yoki belgilangan tartibda utilizatsiya qilinishi lozim.

Unumdorligi soatiga 100 kg gacha bo'lgan chiqindilarni yoqish pechlari kasalxonaning xo'jalik hududida 25 metr masofada, unumdorligi soatiga 100 kg dan ortiq bo'lgan alohida pechlar esa turar-joy binolaridan 100 metr va davolash korpuslaridan 50 metr masofada joylashtiriladi. Kichik quvvatli pechlar uchun masofa hisob-kitob usuli bilan aniqlanadi, ammo 25 metrdan kam bo'lmasligi kerak. Ko'rsatilgan masofalar shamol yo'nalishi, pechning quvvati va boshqa mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda o'zgartirilishi mumkin*.

Chiqindilarni yo'q qilish uchun shahar tashkilotlari va korxonalaridan (krematoriyalar va boshqalar) foydalanish mumkin.

109. Yangi qurilayotgan va qayta ta'mirlanayotgan silga qarshi kurashish muassasalari uchun issiq suv ta'minoti tizimi ishdan chiqqan yoki rejali ta'mirlanayotgan hollarda zaxira (favqulodda) issiq suv ta'minoti ko'zda tutilishi shart*.

Mavjud muassasalar uchun favqulodda holat sifatida sanitariya o'tkazish punktlari va operatsiyadan oldingi xonalarda uzluksiz ishlaydigan elektr isitish qurilmalari o'rnatiladi. Ulardan muolaja xonalari, hammomlar, sanitariya xonalari, bufet yuvish xonalari, ovqat tarqatish joylari, oshxonalar va alohida sanitariya-gigiyena hamda epidemiyaga qarshi rejim talab qilinadigan boshqa funksional xonalarda foydalanishga ruxsat etiladi.

110. Tibbiy, texnologik, sanitariya-texnik, muhandislik va boshqa jihozlar, mebellar va inventarlar amaldagi texnik shartlar va standartlarga mos kelishi, soz holatda bo'lishi, nam tozalash va dezinfeksiya qilish imkoniyati va qulayligini ta'minlaydigan gigiyenik qoplamaga (bo'yoq, qoplama) ega bo'lishi shart.

Ventilatsiya tizimlariga rejali-ogohlantiruvchi xizmat ko'rsatish, jumladan ularning ishlash parametrlarini tekshirish, har chorakda kamida bir marta muassasalarning maxsus tayyorlangan texnik xodimlari yoki shartnoma asosida jalb qilingan tashqi tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Ishdan chiqqan, nosoz jihozlar, mebellar va inventarlar darhol almashtirilishi yoki ta'mirlanishi, yaroqsiz holga kelganlari esa o'z vaqtida hisobdan chiqarilishi kerak. Nosoz yoki nuqsonli jihozlar, mebellar va inventarlardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi. Foydalanilmayotgan jihozlar, mebellar va inventarlar omborxonalarda saqlanishi shart.

111. Sanitariya-texnika jihozlari va uskunalari (jo'mraklar, yuvgichlar, vannalar, hojatxonalar, pissuarlar va boshqalar) soz holatda saqlanishi, zang va boshqa qatlamlardan tozalanishi, yoriqlar va boshqa nuqsonlarga ega bo'lmasligi lozim. Nosoz jihozlar darhol almashtirilishi shart.

Bo'limlardagi bemorlar uchun hojatxonalar alohida xonachalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak*.

112. Bemorlar palatalarida, shifokor xonalarida, hojatxonalarda, boks va yarim bokslar* shlyuzlarida, muolaja va bog'lov xonalarida aralashtirgichli issiq va sovuq suv ta'minoti bilan jihozlangan qo'l yuvgichlar o'rnatilishi lozim. Markazlashtirilgan suv ta'minoti bo'lmagan hollarda suv zaxirasi uchun idishlar, sovuq suvli qo'l yuvgichlar va mahalliy isitish qurilmalari o'rnatilishi zarur.

113. Operatsiyadan oldingi, bog'lov, muolaja xonalari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning qo'llari alohida rejim va tozalikni talab qiladigan boshqa xonalar aralashtirgichli tirsak jo'mrakli yoki yarim o'tkazgichli (elektron) qo'l yuvgichlar bilan jihozlanishi kerak. Bo'limlarda yuqorida ko'rsatilgan xonalardan tashqari, xodimlar uchun bokslarning shlyuzlari va hojatxonalarida tirsak jo'mrakli qo'l yuvgichlar, shuningdek barcha hojatxonalarda yuvish idishlari uchun oyoq bilan boshqariladigan tushirgichlar o'rnatilishi lozim*.

114. Palata bo'limlarining sanitariya xonalari tuvaklar, kleyonkalar va boshqalarga ishlov berish uchun vositalar va jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak.

Bo'limlardagi hojatxonalar soni erkaklar hojatxonasida 15 kishiga 1 ta qurilma, ayollar hojatxonasida 10 kishiga 1 ta qurilma hisobidan, lekin har birida kamida 1 tadan qurilma bo'lishi kerak. Erkaklar hojatxonasidagi pissuarlar soni unitazlar soniga teng bo'lishi lozim*.

115. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun sanitariya-maishiy xonalarda quyidagilarni ko'zda tutish tavsiya etiladi*:

bo'lim uchun sanitariya qurilmalari soni - ayollar uchun kamida 2 ta va erkaklar uchun 1 ta qurilma hisobidan.

dush xonalari soni - tibbiyot xodimlarining eng ko'p smenada ishlaydigan har 10 kishiga 1 ta dush xonasi hisobidan. Xodimlar soni kam bo'lganda har bir bo'limga 1 tadan dush kabinasi ko'zda tutilishi kerak.

Operatsiya bloklarida* xodimlar uchun sanitariya o'tkazgichlari (erkaklar va ayollar uchun) har biri ikkita qo'shni xona - yechinish xonasi va kiyinish xonasi hamda dushxonadan iborat tarzda loyihalanishi kerak. Dushxonalar (har bir sanitariya o'tkazgichda 2-4 ta operatsiya xonasiga 1 ta kabina hisobidan) shunday joylashtirilishi kerakki, ulardan o'tish chiqish yo'nalishida bo'lsin.

Bolalar bo'limlarining* qabulxonalarida xodimlar uchun kiyim almashtirish xonasi va dush xonasi bilan jihozlangan sanitariya o'tkazgichlari har 5 kishiga 1 ta dush xonasi hisobidan bo'lishi kerak.

116. Palatalardagi kasalxona o'rinlari gigiyenik me'yorlarga qat'iy rioya qilgan holda o'rnatilishi kerak, ammo har bir palatada 4 tadan ortiq o'rin bo'lmasligi lozim. Palatadagi o'rinlar derazali devorlarga parallel ravishda qatorlab joylashtirilishi kerak. O'rinlardan derazali devorlargacha bo'lgan masofa kamida 0,9 metr bo'lishi shart. To'rt o'rinli palatalarda o'rinlarning yon tomonlari orasidagi masofa, shuningdek, 2-3 o'rinli palatalarda o'rinlarning yon tomonlari va devor orasidagi masofa kamida 1,3

metr, o‘rinlarning uzun tomonlari orasidagi masofa kamida 0,8 metr, bolalar palatalari va tiklanish davolash palatalarida esa kamida 1,2 metr bo‘lishi kerak.

Palatalarda har bir o‘rin uchun karavot yonidagi tumbochka va stul bo‘lishi shart.

Bo‘limlarni zarur miqdorda kichik mexanizatsiya vositalari (zambillar, g‘ildirakli kreslolar, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalarni tashish uchun aravachalar) bilan jihozlash tavsiya etiladi.

117.Bo‘limlardagi kir saqlash xonalari namlab tozalash va dezinfeksiya qilish mumkin bo‘lgan gigiyenik qoplamali javonlar bilan jihozlanadi. Umumiy kir xonalari stellajlar, shuningdek, kir-kechaklarni saralash uchun stollar, zarur hollarda esa pandusli yoki ko‘tarish mexanizmlari kir qabul qilish lyuklari bilan jihozlanadi.

118.Bo‘limlarda bemorlarning shaxsiy ichki kiyimlarini yuvish va quritish uchun maxsus xona bo‘lishi kerak.

13-bob. Xonalarning isitish, shamollatish, mikroiqlim va havo muhitiga qo‘yiladigan talablar*

119.Isitish, shamollatish va havoni konditsiyalash tizimlari shifoxona xonalarining mikroiqlimi va havo muhitining optimal sharoitlarini ta‘minlashi shart*.

120.Isitish, shamollatish va havoni konditsiyalash tizimlarini loyihalash, qurish (qayta qurish) va ulardan foydalanishda amaldagi me‘yoriy hujjatlarning asosiy qoidalariga, ushbu me‘yor va qoidalarga hamda boshqa hujjatlarga rioya qilish lozim*.

121.Kasalxonalar, statsionarlar (bo‘limlar) xonalari uchun haroratning hisob-kitob ko‘rsatkichlarini 7-ilovaga muvofiq belgilash kerak.

122.Silga qarshi muassasalardagi isitish tizimlari* butun isitish mavsumi davomida xonalardagi havoning bir tekis isishini ta‘minlashi, foydalanish jarayonida ajralib chiqadigan zararli moddalar va hidlar bilan havoning ifloslanishiga yo‘l qo‘ymasligi, ruxsat etilgan darajadan ortiq shovqin chiqarmasligi, tartibga soluvchi qurilmalar bilan jihozlangan bo‘lishi hamda joriy xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash uchun qulay bo‘lishi lozim.

123.Isitish vositalari* sifatida radiatorlar va panellardan foydalanish lozim. Isitish vositalarini tashqi devorlar yoniga, derazalar ostiga, to‘siqsiz joylashtirish kerak. Ma‘muriy-xo‘jalik xonalarida, bolalar kasalxonalarida va ayrim ixtisoslashtirilgan bo‘limlarda isitish vositalari dekorativ panjaralar, to‘rlar yoki teshikli devorlar bilan o‘raladi. Mazkur himoya moslamalari shunday o‘rnatilishi kerakki, bunda vositalar yuzasini 15% dan ortiq kengaytirishga ehtiyoj tug‘ilmasin. Shu bilan birga, vositalardan joriy foydalanish va ularni tozalash uchun erkin kirish ta‘minlanishi lozim. Yuzalar silliq, bo‘yalgan, nam tozalashga qulay bo‘lishi va toza saqlanishi kerak*.

124.Kasalxonalarning markaziy isitish tizimi uchun issiqlik tashuvchi sifatida

isitish vositalarining eng yuqori harorati 85°S bo'lgan suvdan foydalaniladi. Davolash muassasalarining ochiq isitish tizimlarida issiqlik tashuvchi sifatida boshqa suyuqliklar va eritmalar (antifriz va boshqalar) foydalanish man etiladi.

125. Infeksiyalanish xavfi yuqori bo'lgan barcha xonalarni mexanik harakatlantirilgan havo kiritish-chiqarish ventilyatsiya tizimi bilan jihozlash tavsiya etiladi.* Issiq iqlim sharoitlarida kuchli tabiiy shamollatishni ta'minlash uchun arxitektura talablarini hisobga olgan holda binolarni loyihalash va qurishga ruxsat beriladi (binolarni shamol yo'nalishini hisobga olgan holda joylashtirish, palatalar bir tomonlama joylashgan yo'laklar, shamollatiladigan xonalar maydoni va ochiladigan derazalar maydonining nisbati - 5:1 va hokazo).* Har bir boks va yarim boksdan so'ruvchi ventilyatsiyani deflektor o'rnatgan holda, kirituvchi ventilyatsiyani esa - mexanik harakatlantirib yo'lakka havo uzatiladigan tarzda tashkil etish lozim. Palatalardan havoni so'rib olish alohida kanallar orqali amalga oshirilishi kerak.

126. Operatsiya xonalaridan tashqari barcha xonalarda tabiiy shamollatish deraza romlari va tashqi devorlardagi fortokhkalar, ochiq framugalar, tavaqalar va boshqa moslamalar orqali, shuningdek havoni mexanik harakatlantirmasdan ventilyatsiya kanallari orqali amalga oshirilishi lozim. Framugalar, fortokhkalar va boshqa tabiiy shamollatish qurilmalari ularni ochib-yopish uchun moslamalarga ega bo'lishi, soz (ishlaydigan) holatda saqlanishi kerak.

127. Mikobakteriyalarning ko'p dorilardan chidamliligi yuqori bo'lgan sil kasalligi bemorlari bo'limlaridan tortuvchi ventilyatsiyani har bir palatadan alohida gravitatsion ta'sir va deflektor o'rnatish orqali, kirituvchi ventilyatsiyani esa mexanik ta'sir va havoni koridorga uzatish bilan tashkil etish lozim. Ko'p dorilardan chidamliligi yuqori bo'lgan sil kasalligi bemorlari palatalaridan havo tortish ventilyatsiyasi havoning vertikal yo'nalishda o'tishini istisno etadigan alohida kanallar orqali amalga oshirilishi kerak. Ularni hojatxona bilan bog'langan shlyuzli qilib loyihalash lozim, bunda hojatxonada havo tortish ustunlik qilishi kerak.

128. Markazlashtirilgan ventilyatsiya va havo tozalash tizimlari uchun tashqi havoni davolash-profilaktika muassasasi hududining xavfi past zonasidan, yer sathidan kamida 1 metr balandlikdan olish kerak. Kirituvchi qurilmalar orqali beriladigan tashqi havoni dag'al tozalash filtrlarida tozalash lozim. Yuqumlanish xavfi yuqori bo'lgan xonalardan chiqarilgan havoni havo olish joylari, derazalar, eshiklar va odamlar to'planadigan joylardan kamida 8 metr uzoqlikka chiqarish kerak.

Agar buning iloji bo'lmasa, UFBI yoki NERA filtrlash orqali zararsizlantirish lozim.

129. Operatsiya, narkoz, reanimatsiya, operatsiyadan keyingi palatalarga, intensiv terapiya palatalariga va bemorlar uchun palatalarga konditsionerlash tizimidan beriladigan havo dastlab nozik tozalash filtrlarida tozalanishi shart. Yozgi va qishki mavsumda xonalardagi havo almashinuvining hisobiy harorati va karraligini 1-3-

ilovalarga muvofiq belgilash lozim.

130. Havo quvurlari, havo taqsimlash va havo qabul qilish panjaralari, shamollatish kameralari, shamollatish qurilmalari va boshqa uskunalar toza saqlanishi kerak,

ularda mexanik shikastlanishlar, korroziya izlari, germetiklikning buzilishi bo'limsligi lozim*.

131. Ishlab turgan ventilyatorlar va elektr dvigatellar sozlangan, begona shovqinlarsiz ravon ishlaydigan va konstruksiyalarni titratmaydigan bo'lishi shart. Ventilyatsiya qurilmalari texnik qavatlarining izolyatsiyalangan shamollatish kameralarida joylashtirilishi kerak*. Ventilyatorlar shovqin va tebranishdan himoya talablari hamda hisob-kitoblarni inobatga olgan holda o'rnatilishi lozim.

132. Tabiiy shamollatiladigan palatalar va boshqa xonalarni fortochkalar, framugalar, tavaqalar orqali shamollatishni yilning sovuq mavsumida sutkasiga kamida 4 marta va yilning iliq mavsumida doimiy ravishda amalga oshirish zarur.

14-bob. Palata bo'limining asosiy xonalarida ratsional havo almashinuvini tashkil etish

133. Palatalar va bo'limlardagi havo almashinuvi havo oqimining palata bo'limlari o'rtasida, palatalar o'rtasida, qo'shni qavatlar o'rtasida o'tishini istisno etishi kerak. Yuqori xavfga ega bo'lgan palatalar va boshqa xonalarda havoning differensial sarfi orqali

Yuqori xavfli xonalarda manfiy bosim, xodimlar xonalari va boshqa past xavfli xonalarda esa musbat bosim bo'lishi kerak. Tavsiya etilgan ventilyatsiya ko'rsatkichlari 2-ilovada keltirilgan.

134. Yuqumli kasalliklar xavfi yuqori bo'lgan xonalarda palataga havo oqimi bir katta yoshli kishi va bir bola uchun soatiga kamida 80 m^3 ni tashkil etishi yoki soatiga kamida 6 marta havo almashinuvini ta'minlashi lozim.

135. Palatalarning izolyatsiyalangan havo rejimini yaratish uchun ularni sanitariya xonasi bilan bog'langan shlyuz bilan loyihalashtirish kerak, bunda sanitariya xonasida havo so'rilishi ustunlik qilishi lozim.

136. Yuqori xavfli palata bo'limlarining yo'laklarida palatalardagi me'yorlangan shamollatish ko'rsatkichlarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan havo sarfi bilan kiruvchi shamollatish tizimini o'rnatish lozim (13.2-bandga qarang).

137. Yuqori xavfli bo'limlarga kiraverishda ijobiy bosim ("havo qulfi") hosil qilish uchun havo oqimi (havo haydash) qurilmasi bilan jihozlangan shlyuzlarni o'rnatish tavsiya etiladi.

15-bob. Operatsiya bloklarining havo almashinuvini tashkil etish

138.Shifoxonaning me'moriy-rejaviy yechimlari va havo almashtirish tizimlari yuqumli kasalliklarning palata va boshqa xonalardan operatsiya blokiga hamda havoning alohida tozaligini talab qiladigan boshqa xonalarga o'tishini oldini olishi kerak.

139.Operatsiya blokiga palata bo'limlari, zinapoya-lift qismi va boshqa xonalardan havo oqimining kirishini oldini olish uchun, ko'rsatilgan xonalar va operatsiya bloki o'rtasida havo bosimi bo'lgan neytral zona tashkil etilishi zarur*.

Havo oqimlari operatsiya xonalaridan ularga tutash xonalarga (operatsiyadan oldingi va boshqa xonalarga), bu xonalardan esa yo'lakka* o'tishi kerak.

140.Operatsiya xonalarining pastki qismidan chiqarib yuboriladigan havo miqdori 60%, yuqori qismidan esa 40% bo'lishi lozim. Toza havo yuqori qismdan beriladi. Bunda kiruvchi havo oqimi chiquvchi havo oqimidan kamida 20% ko'p bo'lishi shart*.

141.Toza va yiringli operatsiya xonalari, reanimatsiya bo'limlari, bog'lov xonalari, palata bo'limlari, rentgen xonalari va boshqa maxsus xonalar uchun alohida (izolyatsiyalangan) shamollatish tizimlarini ko'zda tutish zarur*.

142.Davolash muassasasida buyruq bilan shamollatish va havoni mo'tadillash tizimlaridan foydalanish uchun mas'ul shaxs tayinlanishi shart.

143.Havo yo'llarining shamollatish va havoni konditsiyalash tizimlarini profilaktik ko'rikdan o'tkazish va ta'mirlash tasdiqlangan jadvalga muvofiq, lekin yiliga kamida 2 marta amalga oshirilishi kerak. Joriy nosozliklar va kamchiliklar darhol bartaraf etilishi lozim. Oyiga kamida 1 marta filtrlarni tekshirish, tozalash va almashtirish zarur*.

144.Havo muhitining harorati, namligi va kimyoviy moddalar bilan ifloslanganlik darajasini nazorat qilish, shamollatish tizimlarining ish unumdorligini va havo almashinuvi tezligini tekshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

Asosiy funksional xonalarda: operatsiya, operatsiyadan keyingi, intensiv terapiya palatalarida, fizioterapiya bo'limlarida, kuchli ta'sir etuvchi va zaharli moddalar saqlanadigan xonalarda, dorixona omborxonalarida, dori vositalari tayyorlanadigan xonalarda, insonlar salomatligiga zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan laboratoriyalarda - har 3 oyda 1 marta;

Statsionarlarda (bo'limlarda), bakteriologik laboratoriyalarda, rentgen xonalarida - har 6 oyda 1 marta, qolgan xonalarda - har 12 oyda 1 marta.

Nazorat natijalari muassasada saqlanadigan dalolatnoma bilan rasmiylashtirilishi shart.

145.Davolash muassasalarining operatsiya xonalari, palatalari, intensiv terapiya, reanimatsiya, muolaja va boshqa xonalaridagi havoning kimyoviy tarkibi 2-ilovada

ko'rsatilgan konsentratsiyalardan oshmasligi lozim.

146.Xonalar havo muhitining bakterial ifloslanish darajalari, ularning funksional vazifasi va tozalik sinfiga qarab, ilovada keltirilgan ruxsat etilgan darajadan oshmasligi kerak 2 *

16-bob. Tabiiy va sun'iy yoritishga oid gigiyenik talablar

Tabiiy yoritish

147.Silga qarshi muassasalarning xonalari tabiiy yorug'likka ega bo'lishi shart. Omborxonalar, palatalar yonidagi sanitariya xonalari, gigiyenik vannalar, huqna xonalari, shaxsiy gigiyena xonalari, xodimlar uchun dush va kiyim almashtirish xonalari, termostatlar, mikrobiologik bokslar, operatsiyadan oldingi va operatsiya xonalari, apparat xonalari, narkoz xonalari, fotolaboratoriyalar hamda texnologiyasi va foydalanish qoidalari tabiiy yorug'lik talab qilmaydigan boshqa ayrim xonalarda ikkilamchi yorug'lik yoki faqat sun'iy yoritish qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

Tabiiy yorug'lik bilan loyihalashtirilgan operatsiya xonalarini gorizontning shimoliy yo'nalishlariga (shimoli-g'arb, shimol, shimoli-sharq) qaratib joylashtirish lozim.

148.Palata bo'limlari yo'laklari tabiiy yorug'likka ega bo'lishi kerak, bu binolarning yon devorlaridagi derazalar va yorug'lik tushadigan bo'shliqlar (xollar) orqali ta'minlanadi. Yorug'lik tushadigan bo'shliqlar orasidagi masofa 24 metrdan, yo'lakning oxirigacha esa 36 metrdan oshmasligi lozim. Davolash-tashxis va yordamchi bo'limlarning yo'laklari yon yoki ko'ndalang tabiiy yoritilgan bo'lishi kerak*.

149.Binolarning joylashuvi va yo'nalishi 22-martdan 22-sentyabrgacha bo'lgan davrda uzluksiz uch soatlik quyosh nuri tushishini ta'minlashi zarur.

150.Yoz paytida to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan ko'zni qamashtirishi va qizib ketishidan himoya qilish uchun shimoliy kenglikning 70°-290° gorizont sektoriga qaragan yorug'lik o'tkazgichlar quyoshdan himoyalovchi qurilmalar (soyabonlar, jalyuzilar va boshqalar) bilan jihozlanishi shart*.

Sun'iy yoritish

151.Sun'iy yoritish xonaning maqsadiga mos bo'lishi, yetarli, boshqariladigan va xavfsiz bo'lishi, ko'zni qamashtirmasligi hamda insonga va xonalarining ichki muhitiga boshqa salbiy ta'sir ko'rsatmasligi lozim (4-ilova).

152.Barcha xonalarda, istisnosiz, umumiy sun'iy yoritish ko'zda tutilishi shart. Bundan tashqari, alohida funksional zonalar va ish joylarini yoritish uchun mahalliy yoritish o'rnatiladi*.

153.Statsionarlar xonalarining sun'iy yoritilishi

lyuminessent va cho'g'lanma lampalar yordamida amalga oshiriladi. Tavsiya etilgan yoritilganlik darajasi, yorug'lik manbai va lampa turi davolash-profilaktika muassasalarini loyihalash bo'yicha amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq tanlanadi. Qo'llaniladigan lyuminessent yoritgichlar juda past shovqin darajasiga ega bo'lgan ishga tushirish-rostlash apparatlari bilan jihozlangan bo'lishi kerak*.

154.Xonalarni umumiy yoritish uchun shiplarga o'rnatiladigan yoritgichlar yaxlit (yopiq) nurlantirgichlarga ega bo'lishi lozim.

155.Palatalarni yoritish uchun har bir karavot yoniga, pol sathidan 1,7 metr balandlikda o'rnatiladigan kombinatsiyalashgan devor yoritgichlari (umumiy va mahalliy yoritish) qo'llanilishi kerak*.

156.Bundan tashqari, har bir palatada eshik yonida poldan 0,3 metr balandlikda o'rnatilgan maxsus tungi yoritish chirog'i bo'lishi shart. Bolalar bo'limlarida esa palatalarning tungi yoritish chirog'i eshik tepasiga pol sathidan 2,2 metr balandlikda o'rnatiladi*.

157.Shifokor xonalarida bemorni ko'zdan kechirish uchun devor yoritgichlari o'rnatilishi lozim.

17-bob. Statsionarlarda ishlaydigan tibbiyot xodimlarining mehnat va maishiy sharoitlariga qo'yiladigan gigiyenik talablar

158.Asosiy funksional, ishlab chiqarish xonalarida hamda xizmat ko'rsatuvchi tibbiy va boshqa xodimlarning ish joylarida mikroiklim va havo muhitining me'yoriy ko'rsatkichlari (harorat, namlik, havo harakati tezligi, kimyoviy va bakteriologik tarkibi), shuningdek, me'yoriy havo almashinuvi ta'minlanishi lozim.

159.Uskunalarni joylashtirish va ulardan foydalanish xavfsizlik texnikasi hamda mehnat muhofazasi qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi shart.

160.Operatsiya xonalarida havo bo'shlig'iga chiqayotgan narkotik moddalar bug'larini chiqarib yuborish va yutish uskunalarisiz narkoz apparatlari va boshqa jihozlarni qo'llash taqiqlanadi. Buning uchun havo so'rg'ichlar yoki faollashtirilgan ko'mirli yutuvchi filtrlardan foydalanish lozim.

161.Gazlarni yetkazib berish tizimining germetikligi buzilgan narkoz va nafas olish apparatlaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Muolaja, aerozol-ingalyatsiya xonalarida, bog'lov va sterilizatsiya bo'limlarida yuqori faollikka ega dori vositalarini qo'llash, shuningdek, qo'l yuvish va oqava suvlarni kanalizatsiyaga oqizish bilan bog'liq muolajalarni bajarish uchun so'ruvchi shkaflar o'rnatilishi shart.

Statsionarlarda (bo'limlarda) xizmat ko'rsatuvchi xodimlar va boshqa ishchilar uchun zarur sanitariya-maishiy xonalar nazarda tutilishi kerak*.

161.Sil kasalligiga qarshi kurashish muassasalarida ishlovchi xodimlar

belgilangan tartibda tibbiy ko'rikdan o'tadi.

162.Kasalxonalar va boshqa statsionarlarning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari uchun sanitariya-maishiy xonalarning jihozlari quyidagi talablarga javob berishi shart*:

garderobdagi shkaflar soni ro'yxatdagi xodimlar tarkibining 100 foiziga mos kelishi kerak;

uy va ish kiyimlari uchun garderob maydonini har bir shkafga kamida 0,5 m² hisobidan belgilash lozim. garderobxonalar ishlovchilar soniga mos ravishda shaxsiy (uy) va ish (sanitariya) kiyimlari, poyabzal hamda bosh kiyimlarini alohida saqlashni ta'minlaydigan ikki tabaqali, yopiladigan va shamollatiladigan shkaflar bilan ta'minlanishi shart;

ishlovchi ayollar uchun shaxsiy gigiyena xonalari* (xonalari) ko'zda tutilishi, ularning tarkibida egiluvchan shlangli gigiyenik dushlar hamda issiq va sovuq suvni aralashtirgichlar bilan jihozlangan kabinalar bo'lishi shart. kabinaning o'lchami 1,8x1,2 metrdan kam bo'lmasligi kerak. kabinalarda kiyim-kechaklar uchun ilgaklar (osqichlar) o'rnatilgan bo'lishi lozim.

xizmat ko'rsatuvchi xodimlarni issiq ovqat bilan ta'minlash uchun oshxona yoki bufetlar (ishlovchilar soniga qarab) tashkil etilishi kerak. oshxona va bufetlardagi o'rindiqlar soni har 100 nafar ishlovchiga 10-12 o'rin hisobidan rejalashtirilishi lozim.

xonalarning tarkibi va maydonlarini umumiy ovqatlanish korxonalarini loyihalashtirish va ulardan foydalanish bo'yicha amaldagi me'yorlarga muvofiq belgilash zarur*.

163.Har bir tarkibiy bo'linmada xodimlar uchun kamida 10 kvadrat metr bo'lgan, sovutgichlar, elektr suv isitish qurilmalari va qo'l yuvish uchun rakovinalar bilan jihozlangan xonalar nazarda tutilishi shart*.

18-bob. Kir yuvish xonalari, dezinfeksiya-kamera bloklari va oziq-ovqat bloklariga qo'yiladigan gigiyenik talablar

164.Kir yuvish xonalari, dezinfeksiya-kamera bloklari va ovqatlanish bloklariga qo'yiladigan gigiyenik talablar amaldagi me'yoriy hujjatga muvofiq belgilanadi.

Sil kasalligiga qarshi dispanserlar joylashtirishga, me'moriy-rejaviy va binolarning konstruktiv yechimlariga qo'yiladigan talablar

1.Yer uchastkasini tanlash, qurish, rekonstruksiya qilish, qayta rejalashtirish va foydalanishga topshirish loyihalari sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari va muassasalari bilan majburiy tartibda kelishilishi lozim*.

2.Sil kasalligiga qarshi dispanserlarni jamoat va turar joy binolarida, shuningdek ularga biriktirilgan va qurilgan xonalarda joylashtirish taqiqlanadi*.

3.Yer uchastkalarining maydonlari shaharsozlik me'yoriy hujjatlariga (SHNQ 2.07.01.-03) muvofiq aniqlanadi.

4.Silning shifoxona ichida tarqalish xavfini kamaytirish maqsadida ambulatoriya va statsionar muassasalarda, birlamchi tibbiy yordam va silga qarshi muassasalarda potensial yuqumli bo'lgan bemorlarni erta aniqlash (identifikatsiya qilish) tizimini tashkil etish lozim.

5.Bemorlar kutish joylarida, ro'yxatga olish xonalarida va shifokor xonalari oldida nafas olish bilan bog'liq va silga shubha tug'diruvchi boshqa alomatlari bo'lgan bemorlarning navbatdan tashqari tekshiruvdan o'tishi (yordam olishi) uchun maxsus ajratilgan xona (darcha)ga murojaat qilishlari to'g'risida plakatlar, varaqalar va e'lonlar joylashtirilishi kerak.

6.Ambulatoriya muassasalari (bo'linmalari)ning o'rta yoki kichik tibbiyot xodimlari orasidan maxsus ajratilgan va o'qitilgan xodim qabulga navbatlar paydo bo'lganda, vaqti-vaqti bilan kutayotgan bemorlardan yo'tal, qon tupurish, uzoq davom etgan isitma va boshqa belgilar haqida so'rashi, shuningdek, sil bilan kasallanishi ehtimoli bo'lgan bemorlarni ko'z bilan chamalab aniqlashi lozim. Bu bemorlarga jarrohlik niqobini berishi va shifokorning navbatdan tashqari ko'rigini hamda maxsus ajratilgan joyda balg'am topshirishni kutish uchun alohida ajratilgan xonaga o'tishni taklif qilishi kerak.

7.Kabinetlar, kutish joylari va boshqa xonalar yuqish xavfi darajasiga qarab hududlarga bo'linishi lozim. Ambulatoriya muassasalarida sil belgilari bo'lgan bemorlar saralash orqali aniqlangach, ular navbatdan tashqari qabul qilinishi va tekshirilishi yoki alohida joyda maxsus qabulni kutishlari zarur.

Ichki pardoqlash va jihozlarga qo'yiladigan talablar*

1.Sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanserlarining xonalari tarkibi va maydoni, xonalarning ichki pardoziga, sanitariya-texnik, tibbiy, texnologik va boshqa jihozlarga, mebel va inventarlarga qo'yiladigan talablar ambulatoriya-poliklinika muassasalari qismiga oid 0292-11-sonli Sanitariya qoidalari va me'yorlariga muvofiq ko'rib chiqilishi lozim.

Sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanserlarining tarkibi va tuzilishi

o'z tarkibida quyidagilar mavjud:

statsionarsiz dispanser bo'limi

statsionarli dispanser bo'limi

rentgen xonasi

klinik-diagnostik, bakteriologik laboratoriyalar

funksional diagnostika xonasi

qayd qilish bo'limi

shifokor xonalari

muolaja, protsedura xonalari

balg'am yig'ish xonasi

dots - burchak (bevosita nazorat qilinadigan davolash xonasi)

kattalar uchun ro'yxatga olish bo'limi va alohida kirish joyiga ega bo'lgan kattalar bo'limi

bolalar uchun ro'yxatga olish bo'limi va bolalarni qabul qilish bo'limi (alohida kirish joyi bilan)

dorixona

markazlashtirilgan sterilizatsiya bo'limi

silga qarshi dori-darmonlarni saqlash uchun ombor qoraqalpog'iston respublikasi, viloyatlar va toshkent shahar sil kasalliklariga qarshi kurashish dispanserlari darajasida zarur.

uy sharoitida kir yuvishning oldini olish maqsadida kichik kir yuvish xonasi uchun alohida joy ajratish lozim.

Funksional (shifokor) xonalariga qo'yiladigan talablar:

1.Maydon kamida 12 kv.m bo'lishi kerak (bir shifokor qabuli uchun).

2.Tabiiy shamollatish hamda issiq va sovuq suv ta'minoti majburiy.

3.Devorlar 1,8 m balandlikkacha kafel yoki boshqa namlikka chidamli qoplama bilan qoplanadi. Shiftlar suv emulsiyali bo'yoq bilan bo'yaladi. Pol qoplamasi namlikka chidamli bo'lishi shart.

4.Nam tozalash kuniga kamida 2 marta, shu jumladan dezinfeksiyalovchi vositalar bilan 1 marta o'tkaziladi. Umumiy tozalash ishlari haftada 1 marta amalga oshiriladi.

Havo muhitini ekranli ultrabinafsha nurlantirgichlar yordamida zararsizlantirish butun ish kuni davomida olib boriladi. Mazkur nurlantirgichlar professional tarzda o'rnatilgan, samaradorligi va xavfsizligi sinovdan o'tkazilgan bo'lishi hamda ifloslanishiga qarab, lekin oyiga kamida 1 marta 70% li etil spirti eritmasi bilan tozalanishi lozim.

Dori-darmonlarni qabul qilish xonasi (bevosita nazorat qilinadigan davolash xonasi)

Bevosita nazorat qilinadigan davolash xonalari tuzilmasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

bemorlarning silga qarshi dorilarni qabul qilish xonasi, zararsizlantirish xonasi, shlyuz.

kabinetlar - nkl qvp va qsp xonalari tarkibiga kiradi hamda alohida

(izolyatsiyalangan hududda) joylashishi yoki alohida kirish joyiga ega bo'lishi kerak; pediatriya qabuli hududida nkl kabinetlarini joylashtirish qat'iy taqiqlanadi. alohida kirish joyi bo'lishi majburiy.

tabiiy va sun'iy yoritish bo'lishi shart. deraza o'rinlari mavjud bo'lishi kerak. ekranlangan ultrabinafsha nurlantirgich o'rnatilishi lozim. issiq va sovuq suv ta'minoti bilan jihozlangan yuvgich tashkil etilishi shart.

silga qarshi ambulatoriya muassasalariga tutash hududlarda bemorlar kutish va dorilarni nazorat ostida qabul qilish uchun soyabonli maydonchalar, o'tirish joylari (skameykalar, o'rindiqlar, stullar) bilan jihozlash mumkin. bunday soyabonli maydonchalardan yilning iliq faslida keng foydalanish mumkin.

Balg'am yig'ish joyi

1.Balg'am yig'ish joyi maxsus ajratilgan, oyna (fortochka emas) ochiladigan xonada tashkil etiladi.

2.Devorlar, shiftlar va pollar silliq, so'rilmaydigan material bilan qoplangan, oson yuviluvchi, dezinfeksiyalovchi moddalar va reaktivlar ta'siriga chidamli bo'lishi, qo'l yuvish uchun yuvgich o'rnatilgan bo'lishi kerak.

3.Balg'am yig'ish xonasi uchun yorug', yaxshi shamollatiladigan, derazalari ochiladigan, imkon qadar mexanik harakatlantirgichli so'ruvchi ventilyatsiya bilan jihozlangan xonalar ajratiladi.

4.Balg'am yig'iladigan xonalarning poli va shiftgacha bo'lgan devorlari kafel bilan qoplangan yoki moyli bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lishi shart.

5.Balg'am yig'ish xonalari yo'laklarning alohida qismlarida, bemorlar palatalari, shifokor xonalari va kutish joylaridan uzoqroqda joylashtirilishi lozim.

6.Balg'am yig'ish xonasida ortiqcha buyumlar va mato pardalar bo'lmasligi kerak.

7.Agar texnik sabablarga ko'ra (xona yetishmasligi yoki boshqa sabablar tufayli) ushbu ambulatoriya-poliklinika muassasasida balg'am yig'ish xonasini mazkur SanQvaM talablariga muvofiq jihozlash imkoni bo'lmasa, balg'am yig'ishni ochiq havoda, odamlar to'planadigan joylardan uzoqda, maxsus ajratilgan joyda o'tkazish zarur.

8.Ochiq havoda balg'am yig'ish joyini tashkil etishda bemor uchun stol va stul bo'lishini ta'minlash lozim. Bu joyni to'siq yoki shunga o'xshash qurilma bilan o'rab qo'yish kerak.

Balg'am yig'ish xonasining jihozlari:

oqar suvli rakovina yoki yuvingich;

stol yoki tumba;

balg'am yig'ish uchun standart konteynerlar;

toza konteynerlar uchun sterilizatsiya qutisi;
balg'amli konteynerlarni tashish uchun sterilizatsiya qutisi;
toza polipropilen niqoblar solingan sterilizatsiya qutisi yoki boshqa idish;
ishlatilgan niqoblar uchun idish yoki polietilen paket;
qo'l sochig'i;
balg'am namunalarini saqlash uchun muzlatgich yoki ko'chma sovutgich.

Balg'amni deraza tokchasida saqlash qat'iyan man etiladi!

soatiga kamida 12 marta havo almashinuvini ta'minlaydigan deraza so'ruvchi ventilyatori;

statsionar yoki ko'chma ochiq bakteritsid nurlantirgich;

ro'yxatga olish jurnali;

himoya kiyimlari to'plami bilan jihozlangan ilgich yoki shkaf;
dezinfeksiyalovchi eritmalar.

statsionar yoki ko'chma bakteritsid lampa;

tibbiyot xodimlari va bemorlar uchun balg'am yig'ish bo'yicha yo'riqnomalar.

Yo'riqnomalar devorga ilinadi va oyna bilan himoyalanadi.

9.Balg'am yig'ish xonalarida muolajalar tugagandan so'ng har kuni dezinfeksiyalovchi vositalar (1% xloramin yoki xlorli ohak eritmasi) bilan nam tozalash o'tkazilishi va ochiq UFBI nurlantirgichi bilan kamida 1 soat davomida nurlantirilishi (kvarslash) lozim.

10.Tasodifan balg'am sachragan pol va devorlar darhol 1% xlorli dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan ho'llangan latta bilan artiladi, so'ngra xona kamida 1 soat davomida ochiq UFBI nurlantirgichi bilan nurlantiriladi.

11.Stol yoki polga ko'p miqdorda balg'am to'kilganda, aerosol hosil bo'lishining oldini olish uchun uning ustiga latta yopiladi. Ustidan yuqorida ko'rsatilgan dezinfeksiyalovchi eritmalar quyiladi va 2 soatga qoldiriladi (qurib qolganda latta vaqti-vaqti bilan dezinfeksiyalovchi eritmalar bilan ho'llanadi), shundan so'ng yuza dezinfeksiyalovchi eritmalar yordamida puxta tozalanadi, xona esa kamida 1 soat davomida UFBI bilan nurlantiriladi.

Qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari (SHHV):

12.Yuqori infeksiya xavfi sharoitida FFP2 yoki N95 sinfidagi, EN 149:2001 yoxud NIOSH standartlari bo'yicha sertifikatlangan respiratorlardan foydalanish tavsiya etiladi. Bunday respiratorlar jismoniy butunligi saqlangan, ifloslanmagan, yarim niqobning butun perimetri bo'ylab yaxshi yopishib, filtrlanmagan havoning nafas olish sohasiga o'tishini oldini oladigan va nafas olishga ortiqcha qarshilik ko'rsatmaydigan bo'lsa, qayta ishlatilishi mumkin. Yuqori xavf zonalarida ishlaydigan xodimlar uchun respiratorlarning mos modellari va o'lchamlarini tanlash ishga qabul

qilinish vaqtida va keyinchalik har yili o'tkaziladigan respirator zichligini individual sinovdan o'tkazish (fit-test) orqali amalga oshirilishi lozim.

tibbiy qalpoqcha;

tibbiy xalat;

rezina qo'lqoplar,

yo'talayotgan bemorlar va tashrif buyuruvchilar uchun jarrohlik niqoblari.

19-bob. Sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya rejimlariga qo'yiladigan talablar

165. Turli kasalxona ichi infeksiyalarining aloqa yo'li bilan tarqalishining oldini olishga qaratilgan va barcha sil kasalligiga qarshi muassasalar uchun majburiy bo'lgan sanitariya-gigiyena, epidemiyaga qarshi va dezinfeksiya rejimining nospetsifik choralari.

166. Barcha xonalar, jihozlar, tibbiy va boshqa inventarlar toza saqlanishi shart. Davolash-profilaktika muassasasi ma'muriyati xonalarni tozalovchi xodimlarga sanitariya-gigiyena rejimi va tozalash texnologiyasi masalalari bo'yicha dastlabki va davriy (yiliga kamida bir marta) yo'riqnomalar o'tkazadi.

167. Yuvish va dezinfeksiyalash vositalari ishlab chiqaruvchining yorliq bilan ta'minlangan idishida (o'ramida), javonlarda, maxsus ajratilgan joylarda saqlanishi shart.

168. Turli obyektlarga ishlov berish uchun qo'llaniladigan dezinfeksiyalovchi vositalarning ishchi eritmalari alohida idishlarda bo'lishi lozim:

tibbiy buyumlarni dezinfeksiyalash uchun;

xonalar, mebellar, apparatlar, asboblari va uskunalari yuzalarini dezinfeksiyalash uchun;

tozalash ashyolarini zararsizlantirish hamda B va V toifali chiqindilarni zararsizlantirish uchun.

169. Dezinfeksiyalovchi vositalarning ishchi eritmalari solingan idishlar zich yopiladigan qopqoqlar bilan ta'minlanishi, vosita nomi, uning konsentratsiyasi, maqsadi, tayyorlangan sanasi va eritmaning yaroqlilik muddati ko'rsatilgan aniq yozuvlar yoki yorliqlarga ega bo'lishi kerak.

170. Dezinfeksiyalovchi vositalar bilan ishlashda qo'llash bo'yicha yo'riqnomalarda ko'rsatilgan barcha ehtiyot choralariga, shu jumladan shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishga rioya qilish zarur.

171. Tozalash anjomlari (aravachalar, idishlar, latta-puttalar, polartgichlar) xonalarning funksional vazifasi va tozalash ishlari turlarini hisobga olgan holda aniq belgilangan yoki rangli kodlangan bo'lishi hamda maxsus ajratilgan xonada saqlanishi lozim. Rangli kodlash sxemasi anjomlar saqlanadigan joyda joylashtirilishi kerak.

172. Deraza oynalari har chorakda bir marta va ifloslanishiga qarab yuvilishi

kerak.

173. Palata bo'limlari xonalari va boshqa funksional xonalar hamda kabinetlarni umumiy tozalash jadval asosida oyiga kamida 1 marta o'tkazilishi lozim. Bunda devorlar, pollar, jihozlar, inventarlar va yoritgichlarga ishlov beriladi.

174. Operatsiya bloki, bog'lov xonalari, tug'ruq zallari, muolaja, manipulyatsiya, sterilizatsiya va aseptik rejimli boshqa xonalarni umumiy tozalash haftada bir marta amalga oshiriladi.

175. Jadvaldan tashqari umumiy tozalash tashqi muhitning mikroblar bilan ifloslanishi qoniqarsiz natijalar berganda va epidemiologik ko'rsatkichlar bo'yicha o'tkaziladi.

176. Umumiy tozalashni o'tkazish uchun xodimlar maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalariga (xalat, qalpoqcha, niqob, rezina qo'lqoplar, rezina fartuk va boshqalar), belgilangan tozalash anjomlariga va toza mato salfetkalarga ega bo'lishlari shart.

177. Umumiy tozalash sanitariya-gigiyena qoplamasiga ega bo'lgan devorlarni yuvish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, eshiklar, derazalar, plintuslar, yoritish moslamalari va jihozlar ham yuviladi.

178. Asosiy tozalash ishlari bir vaqtning o'zida 2 ta chelakdan foydalangan holda bajariladi:

birinchi chelakda xlor tarkibli dezinfeksiyalovchi moddaning 0,5% li eritmasi asosidagi yuvish kompleksi tayyorlanadi, unga 50 gramm yuvish vositasi - bo'lakli xo'jalik sovuni yoki 25 gramm har qanday yuvish kukuni qo'shiladi;

ikkinchi chelakda toza suv bo'ladi.

Dastlab latta yuvish eritmasi solingan chelakka botiriladi, ozgina siqiladi va yuviladigan kichik joyni artadi, so'ngra ishlatilgan latta toza suv solingan chelakda chayiladi. Keyinchalik bu jarayon takrorlanadi.

179. Yalpi tozalash bosqichlari:

yalpi tozalashni o'tkazishdan oldin xonalar kamida 20 daqiqa davomida shamollatiladi;

so'ngra barcha yuzalar yuvuvchi-dezinfeksiyalovchi eritma bilan artiladi;

keyin toza suvli latta bilan artiladi va kvars lanadi (30 daqiqa)

Eslatma: Har hafta dezinfeksiyalovchi vositalarni almashtirish tavsiya etiladi: xlor tarkibli, vodorod peroksidi yoki boshqa dezinfektantlar.

180. Dezinfeksiyalovchi eritma sarfi tegishli dezinfektantning tasdiqlangan yo'riqnomasiga ko'ra belgilanadi.

181. Operatsiya bloklari, bog'lov xonalari, muolaja xonalari, yo'laklar, palatalar, shifokorlar xonalari, ordinatolar xonalarini joriy tozalash kuniga kamida 3 marta, shu jumladan bir marta dezinfeksiya vositalari qo'llanilgan holda o'tkaziladi.

182. Ishchi yuzalarga yo'riqnomaga muvofiq 0,5% li xlor tarkibli

dezinfeksiyalovchi eritma yoki boshqa dezinfeksiyalovchi vosita bilan ishlov beriladi.

183.Toza lattalar soni yetarli bo'lishi, lekin 10-15 donadan kam bo'lmasligi kerak. Ishlatilgan lattalarni qayta ishlatishga yo'l qo'yilmaydi. Ishlatilgan lattalar alohida idishga yig'iladi, keyin yuviladi, quritiladi va toza idishda saqlanadi.

184.Joriy tozalashni boshlashdan oldin xonalar 20 daqiqa davomida shamollatilishi kerak. Har bir tozalashdan so'ng UFBI - nurlantirgich yoqiladi.

185.Ishlatilgan tozalash anjomlari (shvabra, chelaklar) dezinfeksiyalovchi eritmada zararsizlantiriladi, keyin suvda chayiladi va quritiladi. Pol va devorlar uchun tozalash anjomlari alohida bo'lishi, aniq belgilarga ega bo'lishi, xonalar, yo'laklar va hojatxonalar uchun alohida qo'llanilishi lozim.

186.Tozalash anjomlari maxsus ajratilgan xona yoki joyda saqlanishi shart.

187.Kir kiyimlar yopiq idishlarda (kleyonka yoki polietilen qoplar, maxsus jihozlangan va belgilangan kir aravachalari yoki shunga o'xshash moslamalar) yig'iladi va kir yuvxonadagi markaziy kir omboriga topshiriladi. Bo'limlarda kir kiyimlarni vaqtincha (12 soatdan oshmagan holda) saqlashga faqat yuzalari suvga chidamli qoplangan, kir kiyimlar uchun mo'ljallangan xonalarda ruxsat etiladi. Xona va jihozlar har kuni yuviladi va dezinfeksiya qilinadi.

188.Kir yuvish maxsus kirxonalarda yoki davolash-profilaktika muassasasi tarkibidagi kirxonada amalga oshirilishi kerak.

189.Kirxonadan toza kirlarni va kirxonaga kir kiyimlarni tashish maxsus ajratilgan avtotransport vositasida qadoqlangan holda (konteynerlarda) amalga oshirilishi lozim.

190.Kir va toza choyshablarni bir xil idishda tashishga yo'l qo'yilmaydi. Mato idishlarni (qoplarni) yuvish kir yuvish bilan bir vaqtda bajarilishi kerak.

191.Bo'limning bir kunlik toza ich kiyimlar zaxirasi maxsus ajratilgan xonada javonlarda yoki shkaflarda saqlanadi. Chaqaloqlar uchun yo'rgaklar boshqa kiyimlardan alohida, shkafning maxsus tokchalarida yoki alohida shkafda saqlanadi. Bemorning shaxsiy (uy) kiyimlaridan foydalanishga ruxsat beriladi.

192.Bemor chiqib ketgandan (vafot etgandan) so'ng, shuningdek ifloslanish darajasiga qarab, to'shaklar, yostiqlar va adyollar dezinfeksiya kamerasida ishlov berilishi shart. Agar to'shaklar namli dezinfeksiyaga chidamli materialdan tayyorlangan g'ilof bilan qoplangan bo'lsa, kamerali ishlov berish talab etilmaydi. Bemorning karavoti va tumbochkasi ham dezinfeksiya qilinishi lozim.

193.Pardozlashdagi joriy nuqsonlarni bartaraf etish (shift va devorlardagi sizishlar, namlik izlari, mog'orlarni yo'qotish, yoriqlar, tirqishlar, chuqurchalarni to'ldirish, ko'chgan qoplama plitkalarni, pol qoplamalaridagi nuqsonlarni va boshqalarni tiklash) darhol amalga oshirilishi kerak.

194.Joriy yoki kapital ta'mirlash davrida xonalarning faoliyati to'xtatilishi shart.

195.Agar faoliyat yuritayotgan binoda ta'mirlash ishlarini o'tkazish zarur bo'lsa,

ishlab turgan xonalarni (shu jumladan, texnik xonalarni) ta'mirlanayotgan qismlardan ishonchli izolyatsiya qilgan holda ta'mirlash ishlarini olib borishga ruxsat etiladi.

196.Davolash-profilaktika muassasalarida sinantrop bo'g'imoyoqlilar, kalamushlar va sichqonsimon kemiruvchilar bo'lmasligi kerak. Dezinseksiya va deratizatsiya sanitariya qoidalariga muvofiq ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishi lozim.

197.DPMda turli xavflilik darajasidagi chiqindilarni yig'ish, vaqtincha saqlash va yo'q qilish tibbiy chiqindilar bilan ishlash bo'yicha sanitariya qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

198.Quyidagi shartlarga rioya qilingan holda sil kasalligiga qarshi muassasalarni qayta ixtisoslashtirish mumkin:

batsillar tarqatuvchi bemorlar va ko'p dori vositalarga chidamli shakllari bo'lgan bo'limga tutash hudud (tuproq), shuningdek bakteriologik laboratoriya va patologoanatomik bo'lim atrofidagi yer 20 sm chuqurlikda va 5 metr radiusda qazilishi lozim;

asfalt yoki beton qoplama butun bo'lsa, hech qanday chora-tadbirlar ko'rilmaydi;

barcha xonalardagi devorlarning ichki pardozi (suvoq, ohak qatlami va boshqalar) g'isht yoki beton devorgacha olib tashlanadi;

yog'och pollar to'liq olib tashlanadi va keyinchalik yoqish orqali yo'q qilinadi;

romlar, deraza o'rinlari, eshiklar, eshik kesaklari 5% xlor saqlovchi dezinfeksiyalovchi modda bilan 60 daqiqa davomida zararsizlantiriladi, keyin pardoqlash ishlari (suvoq, bo'yash va boshqalar) amalga oshiriladi yoki yangi romlar, eshiklar va boshqalar o'rnatiladi;

yog'och shiftlar amaldagi me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan bo'yoqlar bilan yuviladi va bo'yaladi. osma shiftlar olib tashlanadi va yo'q qilinadi. beton qoplamali shiplar asosigacha olib tashlanib, keyin qayta pardoqlanadi.

199.Sil kasalligiga qarshi muassasalarni bolalar ta'lim muassasalari, yopiq turdagi muassasalar (qariyalar uylari, nogironlar uylari va boshqalar), tug'ruqxona majmualari, dorixonalar, turar joy binolari, oziq-ovqat sanoati, umumiy ovqatlanish va savdo obyektlariga o'zgartirish taqiqlanadi.

20-bob. Sil kasalligini aniqlash uchun bakteriologik laboratoriyalarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar

200.Silga qarshi kurashish muassasasining bakteriologik laboratoriyasi sanitariya-gigiyena talablarini bajarishni ta'minlash uchun tegishli vazifaga ega va yetarli maydonga ega bo'lgan ishchi va yordamchi xonalarning to'liq to'plamiga ega bo'lishi shart.

201.Balq'amni KBBga mikroskopiya qilish, sil kasalligi qo'zg'atuvchisini

aniqlash va uning dori vositalarga sezuvchanligini kulturali va molekulyar-genetik usullar bilan tekshirish uchun mo'ljallangan silga qarshi bakteriologik laboratoriya kamida 300 kvadrat metr umumiy maydonga ega bo'lishi, laboratoriya namunalari va xodimlar harakatini samarali va xavfsiz tashkil etish uchun zonalarga ajratilgan bo'lishi kerak. Bunday laboratoriya uchun tavsiya etiladigan xonalar majmuasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Yuqori xavf zonasi:

diagnostik materiallarni qabul qilish xonasi (5-10 kv.m.).

kelgan materiallarni saralash va dastlabki ro'yxatga olish uchun xona (10-12 kv.m.).

diagnostik materiallarga dastlabki ishlov berish, ekish, mikroskopiya uchun preparatlar tayyorlash va bo'yash uchun xona (20-25 kv.m.).

termal (kamida 7 kv.m.) yoki termostatli xonalar.

ekinlarni ko'zdan kechirish xonasi (10-12 kv.m.).

mbt uchun sezuvchanlik testlarini o'tkazish xonasi (14 kv.m.).

bactec analizatori xonasi mgit960 (12 kv.m.).

infeksiyalangan materialni avtoklavlarda zararsizlantirish xonasi ("iflos" avtoklav xonasi) (16 kv.m.).

dezinfeksiyalovchi vositalar ombori (4-6 kv.m.).

hojatxona

tambur-shlyuz.

Past xavfli zona:

lyuminessent mikroskopiya xonasi (12 kv.m.).

yorug'lik mikroskopiya xonasi (12 kv.m.).

yuvish xonasi (18 kv.m.).

preparatoriya (idish-tovoqlarni tayyorlash) xonasi (12 kv.m.).

sterilizatsiya xonasi (quruq issiqlik shkaflarida) (15 kv.m.).

ozuqa tayyorlash xonasi (18 kv.m.).

avtoklav xonasi ("toza") (16 kv.m.).

sovutgichlar xonasi (8-10 kv.m.).

ombor xonasi (5-10 kv.m.).

shifokorlarning hujjatlar bilan ishlash xonasi (12 kv.m.).

katta laborant xonasi (10 kv.m.).

laboratoriya mudiri xonasi (12 kv.m.).

xodimlar uchun xona (dam olish va ovqatlanish) (14 kv.m.).

ustki kiyimlar uchun garderob (12 kv.m.).

ish kiyimini kiyish xonasi (12 kv.m.).

hojatxona va dush

202.Molekulyar-genetik tadqiqotlarni o'tkazish uchun qo'llaniladigan

texnologiyani muayyan manipulyatsiyasi (tadqiqot bosqichi) yuqish xavfiga mos keladigan laboratoriya zonasida joylashgan yetarli maydonli xonalar ajratilishi kerak.

203.Devorlar, shiftlar va pollar silliq, soʻrmaydigan materiallar bilan qoplangan, oson yuviluvchi, dezinfeksiyalovchi moddalar va ishlatiladigan reaktivlar taʼsiriga chidamli boʻlishi lozim. Pol qoplamasi sirpanchiq boʻlmasligi kerak. Xonalar yetarli darajada yoritilgan boʻlishi shart.

204.Sil laboratoriyasidagi laboratoriya rahbari va laboratoriya bioxavfsizligi (sanitariya-epidemiya qarshi tartib) uchun masʼul shaxs muntazam ravishda, kamida har chorakda bir marta laboratoriyada sil infeksiyasi tarqalishi xavfini baholashi va quyidagi omillarni inobatga olgan holda xavfni kamaytirish choralarini zarur tarzda tuzatishi lozim:

- patologik materialning bakterial miqdori va undagi *m.tuberculosis* bakteriyalarining hayotchanligi;

- laboratoriyada sil infeksiyasining ehtimoliy yuqish yoʻllari;

- laboratoriya amaliyotlari paytida yuqumli aerosol hosil boʻlish ehtimoli;

- turli laboratoriya tekshiruvlari davomida aerosol hosil qilishi mumkin boʻlgan harakatlar soni;

- umuman laboratoriyani va alohida xodimlarning ish hajmi;

- laboratoriyani joylashuvi;

- hududdagi sil epidemiologiyasi va laboratoriya xizmat koʻrsatadigan bemorlarning xususiyatlari;

- laboratoriya xodimlarining tajribasi va malaka darajasi;

- ayrim xodimlarning sogʻligʻi holati.

205.Laboratoriyada oʻtkaziladigan barcha turdagi tekshiruvlar uchun tadqiqot texnologiyasini va uni oʻtkazishda infeksiya yuqish xavfini kamaytirishning majburiy choralarini aks ettiruvchi Standart operatsion protseduralarni (batafsil bosqichma-bosqich yoʻriqnomalar, SOP) bajarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishi shart.

206.Laboratoriyada infeksiya tarqalishining yuqori xavfi bilan bogʻliq favqulodda vaziyatlar (avariyalar) yuz berganda (patologik materialning toʻkilishi, sentrifugalash paytida probiraning sinishi, elektr taʼminotining toʻsatdan uzilishi va hokazo) xodimlarning harakatlanishi boʻyicha batafsil yoʻriqnomalar ishlab chiqilishi shart. Laboratoriyani barcha xodimlari ushbu yoʻriqnomalar mazmuni bilan tanishtirilishi lozim. Bu yoʻriqnomalar laboratoriyani yuqori xavf zonasidagi qulay joyga joylashtiriladi.

207.Laboratoriya xonalari ichida balgʻam yigʻish qatʼiyan man etiladi. Tekshirish uchun balgʻam va boshqa patologik material namunalari laboratoriyaga tegishli tarzda, belgilangan, burama qopqoqli shaffof plastmassadan yasalgan germetik yopiq idishlarda yetkaziladi. Patologik materialni steril plastmassa sentrifuga probirkalarida yigʻish va yetkazib berishga ruxsat beriladi.

208.Sil kasalligiga qarshi kurashish laboratoriyasining yuqori xavf zonalariga vakolatli bo‘lmagan shaxslarning kirishi mutlaqo taqiqlanishi kerak. Laboratoriyaning barcha kirish joylarida biologik xavf haqida ogohlantiruvchi belgilar (6-ildovaga qarang) o‘rnatilishi lozim. Bu belgilarda quyidagilar ko‘rsatilishi kerak: patologik agentning nomi - *Mycobacterium tuberculosis*, laboratoriyada infeksiya yuqtirish xavfi darajasi hamda unda biologik xavfsizlik choralari ta‘minlash uchun mas‘ul shaxsning aloqa ma‘lumotlari.

209.Biologik xavfsizlikni ta‘minlashga mo‘ljallangan laboratoriya jihozlari (tortma shkaflar, shamollatiluvchi ish stansiyalari, I sinf va II sinf A2 turidagi biologik xavfsizlik bokslari, sentrifugalar) professional tarzda o‘rnatilishi va foydalanishga qabul qilinishi, soz va to‘liq jihozlangan holatda saqlanishi, to‘g‘ri ishlatilishi hamda muntazam ravishda professional sinovdan o‘tkazilishi va texnik xizmat ko‘rsatilishi lozim.

I sinf va II sinf A2 turidagi biologik xavfsizlik bokslari maxsus tortma tizimiga 20-30 mm oraliqli angishvona usulida ulanishi kerak, bu tizimning sarfi tegishli boksning nominal tortish sarfidan 20% yuqori bo‘lishi lozim.

I sinf va II sinf A2 turidagi xavfsizlik bokslaridan foydalangan holda amallarni bajaradigan laboratoriya xodimlari har kuni kiruvchi havo oqimining yo‘nalishi va tezligini aniqlash uchun sinov o‘tkazishlari shart.

I sinf va II sinf A2 turidagi biologik xavfsizlik bokslari ishga tushirishdan oldin va keyinchalik har yili, shuningdek, yangi binoga qayta o‘rnatilgandan so‘ng EN12469 yoki NSF49 standartlari bo‘yicha sinovdan va sertifikatdan o‘tkazilishi lozim. Biologik xavfsizlik bokslarini sertifikatlashni faqat ushbu ishlarni bajarish uchun sertifikatga ega bo‘lgan mutaxassislargina o‘tkazishlari mumkin. Malakasiz xodimlarning biologik xavfsizlik jihozlariga texnik xizmat ko‘rsatish, muvozanatlash va sinovdan o‘tkazishiga ruxsat berilmaydi.

Sil kasalligiga qarshi laboratoriyalarda II tip V biologik xavfsizlik klassi bokslarini qo‘llash tavsiya etilmaydi.

210.Infeksiya yuqishining o‘rtacha xavfiga ega laboratoriya xonalariga quyidagilar kiradi:

kislotaga chidamli bakteriyalar (KChB) uchun nativ materialdan mikroskopiya (yorug‘lik va lyuminessent) surtmalarini tayyorlash (konsentratsiyalash uchun sentrifugalanmasdan),

balg‘am va boshqa patologik materialni suyultirish, gomogenizatsiya qilish va zararsizlantirish bilan bog‘liq muolajalar, - ozuqa muhitlariga birlamchi ekmalar,

- molekulyar-genetik testlar,

tarkibida tirik *M. tuberculosis* mavjud bo‘lgan patologik material bilan boshqa amallar.

211.Yuqumlanish xavfi o‘rtacha bo‘lgan laboratoriya xonalari uchun quyidagi

talablarni bajarish shart:

Soatiga kamida 6-12 marta havo almashinuvini ta'minlaydigan ventilyatsiya (mexanik yoki tabiiy) bo'lishi kerak.

Agar mexanik shamollatish qo'llanilsa, ish olib borilayotganda barcha eshik va derazalar zich yopilishi lozim.

I yoki II sinfga mansub tortma shkaflar, biologik xavfsizlik bokslaridan foydalanish zarurati laboratoriyaning ish hajmiga qarab aniqlanadi:

agar ish smenasi davomida 15 tadan ortiq bo'lmagan surtma yoki tezkor MGT tayyorlansa, ishlarni yaxshi shamollatiladigan xonada laboratoriya stolida bajarish mumkin.

Agar xonada bir ish smenasida 15 tadan ortiq surtma yoki MGT tayyorlansa, mahalliy shamollatish qurilmalaridan foydalanish majburiy: havo tortuvchi shkaflar, shamollatiladigan ish stansiyalari yoki I yoki II tip A2 biologik xavfsizlik sinfidagi bokslar.

212. Ishlarni bajarishda xodimlar xalat, qo'lqop, zarur bo'lsa, fartuk kiyishlari shart. Ishdan oldin va keyin qo'llarni yuvish majburiy. O'rtacha xavfli xona (zona)dan chiqish joyiga qo'l yuvgich, respiratorlarni saqlash uchun shaxsiy javonlar va "toza" hamda "iflos" xalatlar uchun alohida ilgichlar o'rnatiladi.

213. Agar yuqtirish xavfi o'rtacha bo'lgan bu xonalarda yuqorida sanab o'tilgan yashash muhitini nazorat qilish choralari qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmasa, barcha xodimlar uchun respiratorlardan foydalanish majburiy hisoblanadi.

214. Fiksatsiyalangan va bo'yalgan surtmalarni mikroskopiya qilish yuqtirish xavfini tug'dirmaydi, shuning uchun u yuqtirish xavfi past bo'lgan zonada o'tkazilishi lozim, bu yerda yashash muhitini nazorat qilishning maxsus choralari va nafas olish organlarini himoya qilish vositalarini qo'llash talab etilmaydi.

215. Yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan xonalarga quyidagilar kiradi:

balg'am va boshqa patologik materiallarni suyultirish, gomogenlashtirish va zararsizlantirish bilan bog'liq laboratoriya muolajalari,

ozuqa muhitlariga ikkilamchi ekinlar ekish,

dori vositalariga sezgirlik testlari,

M. Tuberculosisning tirik kulturalari bilan boshqa amallar

216. Yuqtirish xavfi yuqori bo'lgan xonalarda quyidagi talablarga rioya qilish majburiy:

Soatiga kamida 6-12 marta havo almashinuvini ta'minlaydigan mexanik kiritish-so'rish ventilyatsiyasi, qo'shni xonalarga nisbatan xavfi pastroq bo'lgan manfiy bosimni yaratish va nazorat qilinadigan yo'naltirilgan havo oqimi;

Manfiy bosimni saqlashni vizual kuzatish uchun vositalar (indikatorlar) o'rnatiladi;

Kiritilayotgan havo yuqori samarali filtrlar orqali tozalanishi shart;

Tashqi shamolning xonalar ichidagi ventilyatsiya ko'rsatkichlariga ta'sirini bartaraf etish uchun barcha devorlar, to'siqlar, derazalar va eshiklar zich yopilishi va ishonchli izolyatsiyani ta'minlashi lozim;

Yuqori xavfli hududga kiraverishda qo'l yuvgich, respiratorlarni saqlash uchun shaxsiy javonlar va "toza" hamda "iflos" xalatlar uchun alohida ilgichlar bilan jihozlangan, musbat bosim ostida mexanik shamollatiladigan tambur-shlyuz o'rnatiladi;

Laboratoriyaning yuqori xavf hududidagi barcha eshiklar avtomatik yopilish moslamalari bilan jihozlangan bo'lishi shart;

Patologik materiallar bilan barcha muolajalar EN12469 yoki NSF49 standartlari bo'yicha sertifikatlangan, soz holatdagi II A2 toifali biologik xavfsizlik bokslarida o'tkazilishi lozim;

Havoni konditsiyalashning split-tizimlaridan foydalanishga faqat samarali ishlaydigan mexanik ventilyatsiya bilan birgalikda va ularga muntazam malakali texnik xizmat ko'rsatish sharti bilangina ruxsat etiladi;

Elektr ta'minoti beqaror sharoitlarda biologik xavfsizlik bokslarini, tortuvchi ventilyatorlarni, inkubatorlarni (termokameralarni), suyuq muhitlarda kulturalarni diagnostika qilish uskunalarini va namunalarni hamda kulturalarni saqlash uchun sovutgichlarni elektr energiyasi bilan ta'minlash uchun yetarli quvvatga ega bo'lgan avtomatlashtirilgan zaxira elektr ta'minoti manbalari (generatorlar) qo'llanilishi shart;

Yuqumli chiqindilar belgilangan plastik paketlarga joylashtiriladi va tibbiy chiqindilarni utilizatsiya qilish bo'yicha sanitariya me'yorlariga muvofiq zararsizlantirish hamda yo'q qilish uchun olib chiqiladi;

Xodimlar yuqori xavf zonasida ishlarni bajarishda orqa tomondan bog'lanadigan, uzun yengli va uzunligi kamida 30 mm bo'lgan elastik manjetli laboratoriya xalatlarini, shuningdek qo'lqoplarni kiyishlari shart. Agar laboratoriyada kontakt yo'li bilan tarqaladigan infeksiyalar bilan ish olib borilmasa, qalpoqcha va baxillardan foydalanish majburiy emas. Laboratoriyadan chiqishda barcha himoya kiyimlari, respiratorlar va qo'lqoplar tambur-shlyuzning maxsus ajratilgan joyida qoldirilishi lozim;

Agar yuqorida sanab o'tilgan yashash muhitini nazorat qilish choralari qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmasa, xonada hozir bo'lgan barcha xodimlar uchun respiratorlardan foydalanish majburiy hisoblanadi;

Laboratoriyaning yuqori xavfli zonalaridagi zararlangan materiallarni zararsizlantirish uchun mo'ljallangan avtoklavlar so'ruvchi ventilyatsiya bilan jihozlangan alohida xonada joylashtirilishi va chiqish qismida almashtiriluvchi kartridjli bakterial filtr bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Avtoklav xonasining ko'zga ko'rinarli joyiga avtoklavlardan foydalanish va ularni tozalash bo'yicha yo'riqnomalar joylashtirilishi kerak.

217.Laboratoriya rahbari va sanitariya-epidemiya qarshi tadbirlar hamda infeksiya nazoratni tashkil etish uchun mas'ul shaxsga O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan "Silga qarshi muassasalarda infeksiya nazorat bo'yicha qo'llanma" (Toshkent, 2012) hamda 10-ildoda keltirilgan xalqaro qo'llanmalarda bayon etilgan tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi.

**Silga qarshi bakteriologik laboratoriyaning tavsiya etilgan ventilyatsiya
parametrlari laboratoriyasi**

T/r	Xona nomi	Umumiy almashinuvli mexanik ventilyatsiya: soatiga havo almashinuvining tavsiya etilgan karraligi		Mahalliy ventilyatsiyani qo'llash
		kirish	chiqish	
1.	Tahlil natijalarini qabul qilish, ro'yxatga olish, saralash va berish xonasi	yo'lakdan kirish	6	1-sinf BXS
2.	Diagnostik materialni dastlabki ishlash, ekish, surtma tayyorlash va bo'yash xonasi ¹	yo'lakdan kirish	6-12	Ekinlar uchun 1-sinf BXS yoki 2A-sinf BXS
3.	Termal xona (inkubator) ²			mahalliy aralashtiruvchi ventilyator
4.	Termostatli xona	yo'lakdan kirish	6	
5.	Ekinlarni ko'rib chiqish xonasi	yo'lakdan kirish	6-12	
6.	SBT uchun DT sinovlari o'tkazish xonasi ¹	yo'lakdan kirish	6-12	2A-sinf BXS
7.	Avtoklav xonasi ⁴	yo'lakdan kirish	6	Avtoklav ustidagi so'rish soyaboni
8.	Yuqori xavf zonasi yo'lagi ⁵	muvozanatga ko'ra	-	
9.	Yuqori xavf zonasidan o'tishda tambur-shlyuz	Eshikka 10 yoki 250 m ³ /soat	—	
Yuvish xonasi:				
1.	yuvish mashinasiz	5	6	
2.	yuvish mashinasi bilan	3	5	
3.	Preparatxona	2	3	
4.	Sterilizatsiya xonasi	5	6	
5.	Ozuqa muhitlarini tayyorlash va quyish	6	5	Toza laminar boks
6.	Avtoklav xonasi ⁴	2	3	Avtoklav ustidagi so'rish soyaboni
7.	Ozuqa muhitlarini saqlash uchun muzlatgichli xona	2	3	
8.	Ombor. Moddiy xona	yo'lakdan kirish	3	

9.	Yorug'lik mikroskopiya xonasi ³	5	6	
10.	Lyuminescent mikroskopiya xonasi ³	5	6	
11.	Shifokorlar uchun ordinator xonasi	3	1,5	
12.	Dam olish va ovqatlanish xonasi ⁸	1,5	3	
13.	Mudirning xonasi	3	1,5	
14.	Garderob	yo'lakdan oqim	2	
15.	"Toza hudud" yo'lagi ^{3,6}	balans bo'yicha	—	
PZR laboratoriyasi				
16.	Materialni qabul qilish, ro'yxatga olish, saralash va dastlabki ishlov berish zonasi	yo'lakdan oqim	6	-
17.	DNK ajratish zonasi (tirik materialdan)	5	6	"Angishvona" tipidagi mahalliy so'rg'ich ventilyatsiyaga ulangan BBB 2A
18.	DNK ajratish zonasi (o'ldirilgan materialdan)	6	5	
19.	Reaksion aralashmalarni tayyorlash va	6	5	BBB 2A sinfi yoki PZR-boks
DNK kiritish zonasi				
20.	Amplifikatsiya mahsulotlarini <u>elektroforez</u> yoki GiFA	5 (+3 tambur-shlyuzda)		

Izohlar:

1. Biologik xavfsizlik bokslari (BBB) mahalliy so'rma ventilyatsiyaga ulangan taqdirda havo almashinuvi karraligi kamida 6 marta/soat bo'lishi mumkin. Yangi loyihalana yotgan laboratoriyalar uchun havo almashinuvi karraligi 12 marta/soatga teng bo'lishi kerak.

2. Xavf darajasiga qarab, ekranlangan ultrabinafsha nurli bakteritsid nurlatgichdan foydalanishni ko'zda tutish lozim.

3. Xavf darajasiga qarab qo'shni xonadagi bosim ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin.

4. Avtoklavlarni ochganda mahalliy so'rma ventilyatsiya yoqilishi kerak.

5.Yo'lakka beriladigan havo miqdori toza xonalardan kamroq toza xonalarga havo harakatining to'g'ri yo'nalishini ta'minlash va ushbu xonalarda belgilangan karraliklardan kelib chiqqan holda hisoblanadi. Havo sarfi bo'yicha og'ishlar $\pm 10\%$ bo'lishi mumkin, bunda xonadagi havoning talab qilinadigan bosimi (siyraklanishi) ta'minlanishi shart.

6.Agar past xavf zonasidagi yo'lakning kiritilayotgan havo bo'yicha havo almashinuvi darajasi soatiga 1 martadan kam bo'lsa, qo'shimcha ravishda havo kiritish-chiqarish ventilyatsiyasini (+2 / -2) ko'zda tutish zarur.

7.Agar yuvish mashinasida ulanish bo'lmasa, so'ruvchi ventilyatsiya darajasi soatiga 6 martani tashkil etadi.

8.Ushbu xona yuqori xavf zonasida joylashtirilgan hollarda (bu juda tavsiya etilmaydi) ortiqcha ijobiy bosimni ta'minlash lozim.

Silga qarshi muassasaning tavsiya etilgan ventilyatsiya ko'rsatkichlari

T/r	Xona nomi	Umumiy almashinuvli mexanik ventilyatsiya: soatiga havo almashinuvining tavsiya etilgan karraligi	
		kirish	chiqish
Statsionar bo‘limlar			
1.	Sil kasalligi BK (-) bo‘lgan bemorlar uchun palatalar	1 ta o‘ringa 80 m ³ /soat	1 ta o‘ringa 100 m ³ /soat / 6-12
2.	Sil kasalligi BK (+) bo‘lgan bemorlar uchun palatalar ²	yo‘lakdan kirish	1 ta o‘ringa 100 m ³ /soat / 6-12
3.	Toza muolaja xonasi ³	6	3
4.	Iflos muolaja xonasi ³	3	6
5.	Toza bog‘lov xonasi	6	3
6.	Yiringli bog‘lov xonasi	3	6
7.	Ordinatorlar xonasi, bo‘lim mudiri xonasi	6	3
8.	Bemorlar uchun ovqatlanish xonasi	yo‘lakdan kirish	3
9.	Ovqat tarqatish xonasi	2	3
10.	Bemorlar uchun hojatxonalar	yo‘lakdan kirish	1 ta unitazga 50 m ³ /soat; yoki hojatxonada chekishsa 10
11.	Bemorlar uchun dush, hammom xonasi	yo‘lakdan kirish	5
12.	Hamshira posti	3	-
13.	Toza choyshablar ombori	yo‘lakdan kirish	3
14.	Kir choyshablar ombori	yo‘lakdan kirish	5
15.	Balg‘am yig‘ish xonasi	yo‘lakdan kirish	10 (balg‘am yig‘ish kabinasi uchun 20-30)
16.	Yo‘lak ^{3,6}	bo‘lim balansi bo‘yicha	-
Ambulatoriya bo‘limlari			
8.	Ro‘yxatga olish xonasi	3	-
9.	Bemarlarni qabul qilish xonasi	6 (shifokor zonasiga havo berish)	3
10.	Rentgen xonasi muolaja bo‘limi	3	4
11.	Fotolaboratoriya	3	4
12.	Rentgen xonasini boshqarish xonasi	4 + muolaja va fotolaboratoriya uchun havo sarfi	4
13.	Rentgenolog shifokor xonasi	3	1,5

14.	Bronxoskopiya xonasi	yo'lakdan havo kirishi	6
15.	Qon olish xonasi	6 (shifokor zonasiga havo yetkazish)	3
16.	Funksional diagnostika xonasi (spirometriya xonasidan tashqari)	yo'lakdan havo kirishi	3
17.	Spirometriya xonasi	yo'lakdan havo kirishi	6
18.	Ingalatsiya xonasi	8	10
19.	Fizioterapiya xonasi	4	5
20.	Bemorlar uchun kiyim almashtirish xonasi	yo'lakdan havo kirishi	3
21.	Kutish zali	yo'lakning toza qismidan	10
22.	Poliklinika yo'lagi	bemorlar bo'lmagan zonaga muvozanat bo'yicha	-

Izohlar:

Sil kasalligi yuqish xavfi o'rtacha va past bo'lgan bo'limlarda tabiiy shamollatish ekranlangan UFBI bilan birgalikda qo'llanilishi mumkin

1 BK (-) palatasining BK (+) palatasiga o'zgartirilishi mumkin bo'lgan hollarda, faqat so'ruvchi ventilyatsiyani ko'zda tutish kerak (2-bandga qarang).

Sil kasalligiga shubha qilingan yoki surtma bo'yicha bakteriya ajratishi aniqlanmagan bemorlar palatalari uchun BK (+) palatalari kabi ventilyatsiyani tashkil etishni ko'zda tutish lozim.

3 Ushbu xonaning maqomi o'tkaziladigan muolajalarga qarab tibbiyot xodimlari tomonidan belgilanishi kerak.

Bu xona germetik bo'lmashligi lozim. Havo xonadan yo'lakka uzatish oynasi yoki eshik tirqishlari orqali o'tishi kerak.

Yo'lakka beriladigan havo miqdori toza xonalardan kamroq toza xonalarga havo harakatining to'g'ri yo'nalishini ta'minlash va ushbu xonalarda belgilangan almashinuv darajasidan kelib chiqqan holda hisob-kitob bilan aniqlanadi. Xonadagi havoning talab etilgan bosimi (siyraklanishi) ta'minlanishi sharti bilan havo sarfi bo'yicha og'ishlar $\pm 10\%$ gacha bo'lishi mumkin.

Agar bo'lim yo'lagida kiritilayotgan havo bo'yicha havo almashinuvi darajasi soatiga 1 martadan kam bo'lsa, qo'shimcha ravishda kiritish-so'rish ventilyatsiyasini ($\pm 2 / -2$) ko'zda tutish lozim.

Rentgen xonasidagi muolaja xonasi bosimi yo'lakka nisbatan neytral bo'lishi kerak.

Silga qarshi muassasalar xonalaridagi hisoblangan harorat

T/r	Xona nomi	Havoning hisoblangan harorati, °C
1.	Katta yoshli bemorlar uchun palatalar, bolalar bo'limlarining onalar uchun xonalari, xonalar	22 - 23 qishda 25 - 27 yozda
2.	Sil kasalligi bilan og'rigan bemorlar (kattalar, bolalar) palatalari	22 - 23 qishda 25 - 33 yozda
3.	Operatsiyadan keyingi palatalar, reanimatsiya zallari, intensiv terapiya palatalari, operatsiya xonalari	22 - 23 qishda 25 - 27 yozda
4.	Bokslar, yarim bokslar, filtr-bokslar, oldbokslar	22 - 24 qishda, 24-27 yozda
5.	Shifokorlar xonalari, xodimlar xonalari	23 - 24 qishda 25 - 33 yozda
6.	Davolash jismoniy tarbiyasi zallari	18 qishda 24 - 26 yozda
7.	Funksional diagnostika xonalari	22 - 23 qishda 25 - 27 yozda
8.	Davolash jismoniy tarbiyasi, mexanoterapiya, zondlash xonalari	20 qishda 23 - 24 yozda
9.	Vestibyullar, ovqatlanish xonalari, ingalyatorlar kompressor xonalari, kir va omborxonalar	18 qishda 27 - 29 yozda
10.	Mikroto'liqlik va o'ta yuqori chastotali terapiya xonalari, issiqlik bilan davolash xonalari, ultratovush bilan davolash xonalari	22 - 24 qish 26 - 27 yoz
11.	Kir kiyimlar, tozalash buyumlari, dezinfeksiyalash vositalarini saqlash omborxonalari	18 qish Yoz - me'yorlanmagan

Sil kasalligiga qarshi muassasalar qabul bo‘limi xonalarining tarkibi va maydonlari

t/r	Xona		Statsionar (o‘rin) sig‘imiga qarab kvadrat metrdagi maydon						
			50-100	101-200	201-350	351-400	401-500	501-600	601 va undan yuqori
1	Vestibyl - kutish zali (sovuq mavsumda foydalanish uchun)*	Bundan tashqari, ochiq havoda kutish joyi jihozlangan bo‘lishi kerak havoda	12	12	16	18	20	22	24
2	Ro‘yxatga olish joyi*		-	6	6	8	8	8	8
3	Sanitariya nazorat punkti*		1,5 x 2	1,5 x 2	1,5 x 2	3x2	3x2	3x2	3x2
4	Tamburli qabul-ko‘rik boksi*		1,5 + 12,0	1,5 + 12,0	1,5 + 12,0	1,5 + 12,0	1,5 + 12,0	1,5 + 12,0	1,5 + 12,0
5	Muolaja xonasi		-	-	12	12	12	12	12
6	Balg‘am yig‘ish punkti	Ochiq havoda jihozlangan bo‘lishi kerak	4	4	4	4	4	4	4
7	Bo‘lim mudiri xonasi		-	-	12	12	12	12	12
8	Katta hamshira xonasi		-	-	-	12	12	12	12
9	Xodimlar xonasi		4	4	6	6	8	8	10
10	Hojatxonalar		3x2	3x2	3x2	3x2	3x2	3x2	3x2
11	Tozalash anjomlari va dezinfeksiya vositalari uchun omborxona		4	4	4	4	4	4	4

* bilan belgilangan xonalar ekranlangan UFBI nurlantirgichlari bilan jihozlanadi (xonaning yuqori qismi uchun)

Davolash muassasalari xonalari havosidagi dori vositalarining ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalari (RECHK) va xavflilik sinflari

T/r	Aniqlanuvchi modda	RECHK mg/m³, xavf sinfi
1	Aminazin (dimetilaminopropil) 3 xlorfenotiazinxlorgidrat	0,3. II
2	Ingalan (1,1-diftor-2,2-dixloretilmetil efiri)	200 IV
3	Azot (I) oksidi (O ₂ ga hisoblanganda)	5 (O ₂ ga hisoblanganda)
4	Oksatsillin	0,05 I A
5	Streptomitsin	0,1 I A
6	Trixloretilen	10
7	Ftorotan	20 III
8	Formaldegid	0,5 II A
9	Etil xloridi	50 IV
10	Sirka kislotasi	5 II
11	Xlor saqlovchi moddalar	I II
12	Dializ konsentrati (atsetatli, bikarbonatli A, B)	5 II

Davolash muassasalari xonalari havosining yo‘l qo‘yiladigan bakterial ifloslanish darajalari ularning funksional vazifasi va tozalik sinfiga bog‘liq holda

t/r	Tozalik sinfi	Xonalar nomi	Sanitariya-mikrobiologik ko‘rsatkichlar					
			1 m ³ havodagi mikroorganizmlarning umumiy miqdori (KXHB/m ³)		1 m ³ havodagi <i>Staphylococcus aureus</i> koloniyalari soni (KXHB/m ³)		1 dm ³ havodagi mog‘or va zamburug‘lar miqdori	
			Ish boshlanishidan oldin	Ish paytida	Ish boshlanishidan oldin	Ish paytida	Ish boshlanishidan oldin	Ish paytida
1	O‘ ta toza (A)	Operatsiya xonalari, dorixonalarning aseptik bloki, sterilizatsiya xonasi (toza qismi)	12	12	16	18	20	22
2	Toza (B)	Muolaja xonalari, bog‘lov xonalari, operatsiyadan oldingi xonalar, reanimatsiya palatalari va zallari, bolalar palatalari, dorixona yordamchi xonalari dorixonalarning qadoqlash xonalari, klinik laboratoriyalarning tekshiruvlar o‘tkazishga mo‘ljallangan xonalari	-	6	6	8	8	8
3	Shartli toza (V)	Jarrohlik bo‘limlari palatalari, yo‘laklar, operatsiya xonalariga tutash bokslar, bo‘lim palatalari, ordinatorlik xonalari, materiallar xonalari, toza kiyim-kechak omborxonalari	1,5 x 2	1,5 x 2	1,5 x 2	3x2	3x2	3x2

Davolash muassasalari xonalarining tabiiy va sun'iy yoritilganligi

t/r	Xonalar	Ishchi yuza va yoritilganlik me' yorlanadigan tekislik (G - gorizontal, V	Ko' rish ishi darajasi	Tabiiy yoritilganlik KEO, ye _n , %		Sun'iy yoritish		Yoritilganlikning pulsatsiya koeffitsiyenti Kp, %, ko'pi bilan
				Yuqoridan yoki yuqoridan va yondan	Yon tomondan yoritilganda	Yoritilganlik, lk, umumiy yoritilganlikda	Noqulaylik ko'rsatkichi M, ko'pi bilan	
1	Operatsiya xonasi	G-0,8	A-2	-	-	400 L. L.	40	10
2	Operatsiyadan oldingi xona	G-0,8	B-1	3,0	1,0	350 L. L.	40	15
3	Bog'lash xonasi	G-0,8	A-1	4,0	1,5	500 L. L.	40	10
4	Qon saqlash xonasi	G-0,8	VIIIv	-	-	200 L. L.	40	20
5	Shifokorlar xonalari	G-0,8	A-1	4,0	1,5	500 L. L.	40	10
6	Boshqa mutaxassislarni qabul qilish xonalari	G-0,8	B-1	3,0	1,0	350 L. L.	40	15
7	Funksional diagnostika xonalari, endoskopik xonalar	G-0,8	B-1	3,0	1,0	350 L. L. 150 L. N.	40	15
8	Fotariylar, fizioterapiya xonalari	G-0,8	B-2	2,5	0,7	200 L. L. 100 L. N.	60	20
9	massaj, DJT							
10	Mehnat terapiyasi	G-0,8	B-1	3,0	1,0	350 L. L.	40	15
11	Uyqu bilan davolash uchun	G-0,8	J-2	-	-	50 L. I. 100 L. L.	-	-

12	Dori-darmon va bog'lov vositalarini saqlash xonalari	G-0,8	VIIIb	-	-	100 L. L.	-	-
13	Dezinfeksiya vositalarini saqlash xonalari	G-0,8	VIII6	-	-	75 L. L. 35 L. N.	-	-
14	Muolaja, manipulyatsiya xonalari	G-0,8	A-1	4,0	1,5	500 L. L. 200 L. N.	40	10
15	Hamshiralarning xonalari va postlari	G-0,8	B-1	3,0	1,0	350 L. L. 150 L. N.	40	15
16	Bemorlarning ovqatlanishi uchun xonalar	G-0,8	B-2	-	-	200 L. L.	60	20
17	Apparat xonalari (boshqaruv pultlari), yuvish, sterilizatsiya, saralash va saqlash xonalari	G-0,8	B-2	-	-	200 L. L. 100 L. N.	60	20
18	Ro'yxatga olish joyi	G-0,8	B-2	-	-	200 L. L.	60	20
19	Yo'laklar	G-0,0	E	-	-	150 L. L.	90	-
20	Ko'chma apparaturani saqlash xonalari	G-0,8	VIII6	-	-	75 L. L. 35 L. N.	-	-
21	Sanitariya-maishiy xonalar: yuvingichlar, hojatxonalar, dushxonalar, ko'cha kiyimlari uchun garderoberlar	G-0,0 G-0,0 G-0,0	J-1 J-2 J-1	-	-	75 L. L. 50 L. L. 75 L. L. 35 L. N.		-

**Silga qarshi muassasalarda obyektlarni zararsizlantirish usullari,
vositalari va rejimlari**

Zararsizlantirish obyektlarining nomi	Joriy dezinfeksiyada			Yakuniy dezinfeksiyada
	Dezinfeksiya usullari va vositalari	Zararsizlantirish rejimi		
		Eritmalar konsentratsiyasi %	Ta' sir vaqti, daq.	
1. Tupdonlar (balg'am va qopqoqdan tozalangan)	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	Qaynash boshlanganidan 15 daqiqa	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Xlor saqlagan eritmalaridan biri: xloramin, xlorli ohak, kalsiy gipoxlorid solingan qopqoqli idishga botiriladi	5,0	60	
	3. Vodorod peroksid	3,0	180	
2. Balg'am	1. Idishlarga solinadi (1 hajm balg'amga 2 hajm xlor saqlagan eritma hisobidan)	5,0	60	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Quruq xlor saqlagan dezinfeksiyalovchi preparat sepiladi	100 g/l	60	
Eslatma: Zararsizlantirilgandan so'ng balg'am kanalizatsiyaga to'kiladi. Xlorli ishlov berish eritmalarini 5% li asosiy eritmani tindirish va tiniqlashtirish orqali tayyorlash mumkin.				
3. Idish-tovoqlar (ovqat qoldiqlari tozalangan oshxona va choy idishlari: sanchqi, zanglamaydigan po'lat va alyuminiydan yasalgan pichoqlar, dori idishlari)	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Quyidagi xlorli eritmalaridan biriga botiriladi:			
	kalsiy gipoxlorid, xloramin	2,5	60	
	xlorli ohak	3,0	60	

4. Ovqat qoldiqlari	1. Quruq ohak, kalsiy gipoxlorid bilan ishlov beriladi	200 g/kg	60	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Xlorli ohak suti quyiladi (bir hajm ovqat qoldig‘iga ikki hajm eritma)	20,0	60	
5. Idish-tovoqlarni yuvish uchun mochalka, cho‘tka va yershlar	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfeksiya dagi kabi
	2. Xlorli eritmaga botiriladi:			
	kalsiy gipoxlorid xloramin	2,5	60	
	xlorli ohak	2,5	60	
6. Rezina buyumlar, vena ichiga quyish uchun jgut va yostiqcha, qo‘lqoplar	Quyidagi xlorli eritmalardan biriga botiriladi: kalsiy gipoxlorid, xloramin, xlorli ohak	0,5	10	Joriy dezinfek siyadagi kabi
4. Ovqat qoldiqlari	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Xlorli eritmalardan birida ivitiladi	2,0	60	
8. Ro‘molchalar, tupdon uchun buklama cho‘ntaklar, tupdon uchun flanel g‘iloflar	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	2. Xlor tarkibli eritmalardan birida ivitiladi	2,0	60	
9. Kiyim-kechaklar va yotoq anjomlari		Zararsizlantirish uchun dezinfeksiya kamerasiga yuboriladi		Zararsizlantirish uchun dezinfeksiya kamerasiga yuboriladi
10. Xonalar (devorlar, pol, eshiklar, mebellar) kvartiralaridagi bemorlar xonalarida, palatalarda, davolash xonalarida, umumiy foydalanish joylarida	1. Xlor tarkibli eritma bilan ho‘llangan latta yordamida artiladi	1,0		Dezinfek siya eritmasi 1 m ² yuzaga 500 ml
	2. Pollar issiq sovun-soda eritmasi bilan yuviladi (parket pollardan tashqari)			

				hisobida purkaladi
11. Tibbiy termometrlar	Xlor tarkibli eritmaga to'liq botiriladi	0,5	30	Joriy dezinfek siyadagi dek
12. Shpatellar	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfek siyadagi dek
	2. Xlor tarkibli eritmaga botiriladi:	2,0	60	
13. Soch olish mashinalari (dezinfeksiyadan oldin qismlarga ajratiladi), soch qirqish qaychilar	1. Xlor tarkibli eritmaga botiriladi:	1,0	30	Joriy dezinfek siyadagi dek
	2. Uch komponentli eritma: formalin -2,0%, fenol 0,3%, natriy bikarbonat 1,5%, keyin yuvish va quritish		45	
14. Bemorni yuvish uchun gubkalar	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfek siyadagi dek
	2. Xlor tarkibli eritmaga botiriladi	2,0	30	
15. Dushxonalardagi rezina gilamchalar	15 daqiqa oralatib xlor tarkibli eritma bilan ikki marta artiladi yoki purkaladi	1,0		
17. Bemorlarni parvarish qilish buyumlari: ajratmalar uchun idishlar (tuvaklar, taglik idishlar), siydik yig'gichlar, klizma uchun uchliklar, taglik doiralar	Xlor tarkibli dezinfeksiya eritmalaridan biriga botiriladi va ivitiladi	3,0	30	Joriy dezinfek siyadagi dek
18. Korroziyaga chidamli metallardan, shishadan tayyorlangan tibbiy asboblari va boshqa buyumlar	1. Xlor tarkibli eritmalaridan biriga to'liq botirish:	0,5	Kamida 10 daqiqa	Joriy dezinfek siyadagi kabi
	2. Vodorod peroksid	4,0	180	

19. O'yinchoqlar	1. Soda eritmasida qaynatiladi (plastmassadan tashqari)	2,0	15	Joriy dezinfek siyadagi kabi
	2. Xlor tarkibli eritmalardan biriga botiriladi:	2,0	30	
20. Lak-bo'yoq, galvanik yoki polimer qoplamali tibbiy asboblari, qurilmalar, jihozlar, qozonchalar, O2, CO2 ballonlari.	1. Xlor tarkibli eritmalardan biri bilan 15 daqiqa oralatib ikki marta artish	5,0		Joriy dezinfeksiyada gi kabi
	2. 0,5% yuvish vositasi qo'shilgan vodorod peroksid	4,0		
21. Bemorni ko'chirish uchun aravachalar	Xlor tarkibli eritmaga ho'llangan latta bilan artiladi	1,0		
22. Ishlatilgan sharchalar va tamponlar	Xlor tarkibli eritmada zararsizlantiriladi, so'ng mufel pechida yoqib yuboriladi	0,5	Kamida 10 daqiqa	Joriy dezinfek siyadagi kabi
23. Yuvingichlar, siydik to'kgichlar, hojatxonalar, jo'mraklar	Xlor tarkibli eritmalardan biriga ho'llangan latta bilan artiladi	3,0		Joriy dezinfek siyadagi kabi
24. Yumshoq mebellar, mayda ro'zg'or buyumlari, laboratoriya sumkasi (biks) va boshqalar	Xlor tarkibli eritmalardan biriga ho'llangan latta bilan artiladi	2,0		Joriy dezinfek siyadagi kabi
25. Taglik kleynokalar, yo'rgaklar	Xlor tarkibli eritmalardan biriga botirib qo'yiladi	2,5	60	
27. Tozalash anjomlari: lattalar, yuvish cho'tkalari	1. Soda eritmasida qaynatiladi	2,0	15	Joriy dezinfek siyadagi kabi
	2. Xlor tarkibli eritmalardan biriga botirib qo'yiladi	2,5	60	
28. Oqava suvlar, chuqur xandaq chuqurlar	Idishdagi oqava suvning hajmini hisobga olgan holda, dezinfeksiyalovchi preparatlardan birini quruq holda sepish yo'li bilan zararsizlantiriladi:			Joriy dezinfek siyadagi kabi
	xloramin bilan	200 g/l	120	
	xlorli ohak bilan	200 g/l	120	
	kalsiy gipoxlorid bilan	100 g/l	120	

29. Ajratmalar: axlat, siydik, qon yuvindilari, qonli paxta tamponlar, qon	Xlor tarkibli dezinfeksiyalovchi vositaning quruq kukunini quyidagi hisob-kitob bo'yicha sepish orqali zararsizlantiriladi:	200 g/l	120	Joriy dezinfek siyadagi kabi
30. Bir martalik shpritslar, tizimlar	Quyidagi dezinfeksiyalovchi eritmalaridan birida zararsizlantiriladi: xlorli ohak, kalsiy gipoxlorid (DTSGK) yoki xloramin	0,5	10,0	Joriy dezinfek siyadagi kabi
31. Axlat	Preparatlardan biri bilan ko'miladi:			Joriy dezinfeksiyadagi kabi
	xlorli ohak	200 g/kg	240	
	kalsiy gipoxlorid (DTSGK)	100 g/kg	240	
	xloramin	200 g/kg	240	
35. Axlat yig'gichlar	500 ml/m ² xlor saqllovchi dezinfeksiyalovchi eritma sarfi bilan purkaladi	5,0	240	Joriy dezinfek siyadagi kabi

